

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI**

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

Veterinariya fakulteti

5440100–Veterinariya ta'lim yo'nalishi

HAKIMOV ANVAR

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: “Orxitlarning etiopatogenezi, davolash va oldini olish chora–
tadbirlari”**

Ilmiy rahbar, dotsent

R.M.Tashtemirov

Ish ko`rib chiqildi va himoyaga qo`yildi:

“Hayvonlar anatomiyasi,
fiziologiyasi, jarrohligi va
farmakologiya” kafedrasida
mudiri, v.f.d., dotsent
_____N.B.Dilmurodov
«_____» _____ 2016 yil
№ _____-sonli yig'ilish bayoni

Veterinariya fakulteti dekani,
dotsent
_____X.B.Niyozov
«_____» _____ 2016 yil

SAMARQAND – 2016

MUNDARIJA

t.r.	Mazmuni	bet
1.	Kirish.....	3
1.1.	Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash.....	9
2	Adabiyotlar sharhi.....	11
2.1.	Erkaklik jinsiy a'zolari va xususan urug'don kasalliklarining uchrash darajasi, etiologiyasi va patogenezi...	11
2.2.	Orxitlarning klinik belgilari va diagnostikasi.....	15
2.3.	Urug'don kasalliklari va shu jumladan orxitlarni davolash	19
3	Shaxsiy tekshirishlar	28
3.1.	Tadqiqotlar ob'yekti va uslublari.....	28
3.1.1.	Kasallangan itlarni tekshirish usullari.....	30
3.1.2.	Qonni tekshirish usullari.....	31
3.2.	Hayvonlarning kupayish a'zolari	34
3.3.	Periorxit (Periorchitis).....	42
3.4.	Orxit va epididimit (Orchitis et epididymitis).....	44
4.	Tadqiqot natijalari.....	49
4.1.	Samarqand shahrida itlar orasida urug'don kasalliklarining tarqalishi.....	49
4.2.	Davolash jarayonida itlardagi klinik ko'rsatkichlar.....	51
4.3.	Kasallangan itlalar qonini tekshirish natijalari.....	53
5.	Veterinariya ishini tashkil etish va uning iqtisodi.....	57
6.	Hayot faoliyat xavfsizligi.....	61
7.	Q/x da menejment va marketing.....	64
8.	Xulosa va amaliyotga takliflar.....	67
9.	Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.....	68
10.	Ilova (internet ma'lumotlari).....	72

I. KIRISH

Prezidentning 308 va 842–qarorlari. O‘zbekiston Respublikasi aholisining chorva mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini yanada yaxshiroq qondirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti va Vazirlar Mahkamasining chorvachilik sohasida iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish chora tadbirlari to‘g‘risidagi qarorlari Respublikamizda chorva mollarini yanada ko‘paytirish, shu asosda qishloq aholisining bandligi va daromadlari o‘shirish hamda ichki iste‘mol bozorining to‘ldirilishini ta‘minlashga qaratilgan.

Respublika Prezidenti I.A.Karimovning 2006 yilning mart oyida qabul qilgan «Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollari sonini ko‘paytirishni rag‘batlantirish to‘g‘risida»gi PK-308 qarori asosida ishlab chiqilgan dasturning amalga oshirilishi bugun o‘zining sezilarli natijalarini bermoqda. Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar sonini ko‘paytirishga doir chora-tadbirlarning avvalo qishloq aholisi uchun katta iqtisodiy, ayniqsa ijtimoiy ahamiyatini nazarda tutgan holda 2008 yil 21 aprelda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Shaxsiy yordamchi, dexqon va fermer xo‘jaliklarida chorva mollar ko‘paytirishni rag‘batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo‘shimcha chora–tadbirlar to‘g‘risida»gi PQ-842-qarori qabul qilindi.

Iqtisodiy islohatlarning qonun jihatidan ta‘minlashga yo‘naltirilgan bir qator tadbirlar 2009-2012 yillarda sodir etiladigan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozining salbiy oqibatlarini imkon qadar kamaytirishga qaratilgan. Shunga ko‘ra ijtimoiy-iqtisodiy sohaning izchil rivojlanishiga, mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish masalalariga alohida e‘tibor berilib kelinmoqda.

I.A.Karimov “O‘zbekiston mustaqillikka erishish ostonasida” nomli asarida, yoshlarni ilm-fan imkoniyatlardan kengroq foydalanishga e‘tiborni qaratgan. Respublikamizdagi tub islohotlar, dunyodagi istiqbolli yalpi o‘zgarishlar sharoitida o‘tmoqda. Bu esa ro‘y berayotgan jarayonlar va xodisalarining ruxi, mohiyati va kelajagini ilmiy idroq etishining juda zarurligini ta‘kidlaydi.

Respublikamizda barcha dolzarb muammolarni hal etishda ilm-fan o'zining salmoqli hissasini qo'shishi kerak.

Bugungi ilm-fandan nimalarni kutiyapmiz, bizning fikrimizcha, uning kuch-g'ayratlarini qaysi yo'nalishda jamlash kerak bo'ladi. Ro'y-rost aytadigan bo'lsak deb o'qtiradi Prezidentimiz I.A.Karimov respublikamizning fundamental fanlarini ham fan-texnika taraqqiyotining qudratli dvigateliga aylanishiga anchagina bor, ular ishlab chiqarishda inqilobiy o'zgarishlar yasaydigan yechimlarni amalga oshirgani yo'q.

Fan-texnika taraqqiyotiga ketadigan xarajatlar xamisha o'sib borayotganiga qaramay, halq xo'jaligida jiddiy texnologiya siljishlarga erishilgani yo'q. Endilikda ilm-fan yangi yo'llar ochishi, sifat jihatdan yangi texnologiyalarni jadallik bilan yaratishi, jamiyatni yangi holatga o'tishini ta'minlashi zarur, ilmiy-tadqiqot muassasalar ilmiy izlanishlari respublika hal etayotgan muammolarni bir qator aks ettirishi lozimligini taqidlab o'tishni xoxlardim, deb yozadi Prezidentimiz I.A.Karimov o'zining bunday buyuk asarida. Fanni malakali kadrlar bilan ta'minlash, xodimlarni professional bilimdonligi darajasini oshirish, ularni qobiliyatlarini ruyobga chiqarish uchun barcha sharoitlarini yaratish ilmiy jarayonni jadallashtirishning asosiy omilidir.

Yuqoridagi fikrlardan shu aniq bo'ldiki - Respublikamizda chorvachilik ning taraqqiyoti veterinariya va boshqa qishloq xo'jaligi fanlarining taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq. Fanni rivojlantirmasdan turib, amaliyotni yuqori darajaga ko'tarib bo'lmaydi. Veterinariya fanida va uning amaliyotida esa oqsoqlik sezilib turibti. Uning sabablarini o'rganish, davlatimiz fanga ajratgan grant loyixalari mablag'laridan unumli foydalanish, yuksak bilimli ilmiy va ilmiy pedagogik kadrlarni yetishtirish, hozirgi eng dolzarb vazifalardan biriga aylanishini hozirgi zamon talabi ta'qozo etadi.

Hozirgi kunda Respublikamizda aholini chorvachilik mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish alohida e'tibor berilmoqda. Bu borada veterinariya xodimlari zimmasiga o'ta ma'suliyatli vazifalar yuklandi, bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasining 2013-yil 24-yanvardagi 15-

sonli yig'ilishi bayoni bilan Respublikamizda 2013-yilda qoramollar bosh soni go'sht va sut ishlab chiqarishni ko'paytirish zooveterinariya va naslchilik xizmatini ko'rsatish tarmog'ini kengaytirish va yaxshilash bo'yicha amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

«Sog'lom ona va bola yili» davlat dasturi to'g'risida

Ўзбекистон Республикаси Президентининг Қарори. Ўзбекистон республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 7-сон, 62-модда.

Xalqimizning asriy an'analarini hisobga olib, «Ona va bola sog'lom bo'lsa, oila baxtli, oila baxtli bo'lsa, jamiyat mustahkam bo'ladi» degan hayotbaxsh qadriyat va olijanob g'oya jamiyatda chuqurroq anglab yetilishiga va qaror topishiga yo'naltirilgan keng chora-tadbirlar kompleksini amalga oshirish, oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirish, jamiyatda onalarga alohida hurmat-e'tibor muhitini shakllantirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, oilaning mustahkam, sog'lom va ahil bo'lishida mahalliy davlat hokimiyati organlari va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish maqsadida, shuningdek 2016 yil O'zbekiston Respublikasida «Sog'lom ona va bola yili» deb e'lon qilinganligi munosabati bilan:

1. «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturi [ilovaga](#) muvofiq tasdiqlansin, quyidagilar uning ustuvor vazifalari va amalga oshirilishi yo'nalishlari etib belgilansin:

– oilani, onalik va bolalikni muhofaza qilish, ayollar manfaatlarini himoya qilish, sog'lom bolani tarbiyalashda ularning rolini oshirish, kuchli, barqaror va ravnaq topayotgan davlatning negizi sifatida oila institutini mustahkamlashga yo'naltirilgan qonunchilik va normativ-huquqiy bazani yanada takomillashtirish;

– olis va chekka qishloq tumanlarida yashayotgan aholi, ayniqsa ayollar uchun zarur ijtimoiy, maishiy va tibbiy nuqtai nazardan zarur shart-sharoitlar yaratish, qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosidagi zamonaviy uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma obyektlarini barpo etish, qishloq aholisini toza ichimlik suv,

tabiiy gaz bilan ta'minlash, xizmatlar ko'rsatish va servis darajasini yuksaltirish borasidagi ishlarni izchil davom ettirish;

– tibbiyot muassasalarining, jumladan perinatal va skrining markazlarning moddiy-texnika bazasini va kadrlar salohiyatini yanada mustahkamlash, oilaviy poliklinikalar va qishloq vrachlik punktlarining ish samaradorligini oshirish, patronaj tibbiyot hamshiralarining sonini ko'paytirishni ta'minlash, akusher-ginekologlar va bolalar shifokorlari malakasini oshirish;

– nikohga kirayotgan shaxslarning nikohdan oldin to'liq tibbiy ko'rikdan o'tishini ta'minlash uchun tibbiyot xodimlarining mas'uliyatini kuchaytirish, shu asosda tug'ma va irsiy kasalliklar sonini kamaytirish hamda ushbu maqsadlarda poliklinikalarni zamonaviy tashxis uskunalari bilan jihozlash, ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini oshirish, mustahkam oila qurish va sog'lom farzand tug'ilishi uchun nikohdan oldin tibbiy ko'rikdan o'tishning muhimligini aholi keng qatlamlari ongiga singdirishga qaratilgan keng qamrovli tushuntirish ishlarini olib borish;

– aholining tibbiy madaniyatini oshirish, sanitariya va gigiyena, homilador ayollarning sog'lig'ini saqlash va psixofiziologik ahvolini yaxshilash, yosh onalar va bolalarni tegishli tarzda parvarish qilish sohasidagi ishlarni kuchaytirish, ularning ovqatlanish rasioni sifati va kaloriyasi yaxshilanishini ta'minlash;

– yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni keng ommalashtirish, yoshlarni, ayniqsa qishloq joylarda qizlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb etish, yangi sport obyektlarini qurish, ishlab turganlarining moddiy-texnika bazasini mustahkamlash, ularni zamonaviy sport uskunalari va anjomlari bilan jihozlash, yuqori malakali trener kadrlar va murabbiylar bilan ta'minlash;

– mamlakatimizda tinchlik, osoyishtalik va farovonlikni yanada mustahkamlashning muhim sharti sifatida oilalarda sog'lom ma'naviy muhitni, xususan, o'zaro hurmat-ehtirom, er-xotin o'rtasida, ota-onalar bilan farzandlar, qaynona-kelin o'rtasida, qo'ni-qo'shnilar o'rtasida mehr-oqibat ruhini shakllantirish;

– qiz bolalarni - bo'lajak onalarni - jismonan sog'lom va intellektual rivojlangan tarzda voyaga yetkazish, ularning akademik liseylar va kasb-hunar kollejlarda albatta ta'lim olishini, zamonaviy bilimlar va kasb-hunarlariga ega bo'lishlarini ta'minlash, ularning hayotda munosib o'rin egallashlarida, kelajakda sog'lom va mustahkam oila qurishlarida asosiy shart hisoblangan hayotga bo'lgan mustahkam nuqtai nazarni va mustaqil fikrlashni shakllantirish;

– sog'lom bolani voyaga yetkazishda ta'lim tizimining rolini kuchaytirish, maktabgacha ta'lim muassasalari tarmog'ini yanada rivojlantirish, bolalarni maktabga tayyorlash darajasini tubdan oshirish, ilg'or pedagogika va axborot-kommunikasiya texnologiyalarini amaliyotga keng joriy etgan holda boshlang'ich ta'limning yuqori sifatini ta'minlash, sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish tadbirlarini amalga oshirish;

– kasb-hunar kollejlari bitiruvchilarini, avvalo qizlarni ishga joylashtirish, o'z biznesini yo'lga qo'yish ishtiyoqidagi yoshlarga imtiyozli kreditlar, yosh oilalarga uy-joy sotib olish va qurish uchun ipoteka kreditlari, uzoq muddat foydalaniladigan tovarlar xarid qilish uchun iste'mol kreditlari ajratish chora-tadbirlarini ta'minlash;

– dasturiy chora-tadbirlarni amalga oshirish bilan bog'liq masalalarni hal etishda mahalliy hokimiyat organlari bilan fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, xotin-qizlar va yoshlar birlashmalari, faxriylar tashkilotlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash, bu ishlarga jamiyatda hurmat va obro'-e'tiborga sazovor bo'lgan keksa avlod vakillarini keng jalb etish;

– ommaviy axborot vositalari, shu jumladan elektron axborot vositalarining va Internet tarmog'ining imkoniyatlaridan faol foydalangan holda «Sog'lom ona va bola yili» Davlat dasturining maqsad va vazifalari hamda Dasturning amalga oshirilishi to'g'risida keng axborot-tushuntirish ishlarini tashkil etish.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 10 dekabrda F-4577-son [farmoyishi](#) bilan tashkil etilgan Respublika komissiyasiga Davlat

dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq, o'z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etish va nazorat qilish yuklansin.

– bir hafta muddatda Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahri, tumanlar va shaharlarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi va tegishli hududlarning hokimlari boshchiligida Davlat dasturini amalga oshirish bo'yicha tegishli komissiyalar tashkil etilishini ta'minlasin, ularga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar so'zsiz, to'liq va o'z vaqtida amalga oshirilishi uchun shaxsiy mas'uliyatni yuklasin;

– ikki hafta muddatda vazirliklar, idoralar, aksiyadorlik kompaniyalari, uyushmalar, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari tomonidan har bir davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, viloyat, shahar, tuman va aholi punkti bo'yicha «Sog'lom ona va bola yili» tarmoq va hududiy dasturlari ishlab chiqilishi va qabul qilinishini;

– Davlat dasturiga kiritilgan tadbirlar to'liq va o'z vaqtida bajarilishiga qaratilgan ishlarni davlat va xo'jalik boshqaruvi respublika organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari darajasida muvofiqlashtirilishini ta'minlasin, tadbirlar amalga oshirilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatsin;

– yilning har bir choragi yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Devoniga Davlat dasturida nazarda tutilgan tadbirlar bajarilishi to'g'risidagi axborot taqdim etilishini ta'minlasin.

3. O'zbekiston Milliy axborot agentligi, O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasi, O'zbekiston matbuot va axborot agentligi, O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikasiyalarini rivojlantirish vazirligi:

Davlat dasturining maqsad va vazifalari, uni amalga oshirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar va chora-tadbirlar bosma va elektron ommaviy axborot vositalari, shu jumladan Internet tarmog'i jalb etilgan holda aholi orasida muntazam, tizimli va keng yoritilishini;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, mahallalar, nodavlat notijorat tashkilotlari Davlat dasturida nazarda

tutilgan tadbirlarni amalga oshirishda amalda ishtirok etishi va aniq ulush qo'shishi aks ettirilgan holda uning amalga oshirilishidan keng jamoatchilik doimiy ravishda xabardor qilinishini ta'minlasinlar.

1.1. Mavzuning xalq xo'jaligidagi dolzarbligi va uni ilmiy asoslash

Prezidentimiz I.A. Karimov tomonidan keyingi yillarda qishloq xo'jaligini, chorvachilikni rivojlantirishga juda katta e'tibor berilmoqda. Bu borada Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimovning bir qancha farmonlari va qarorlari e'lon qilindi. Bulardan biri 23 mart 2006 yilda chiqarilgan "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarini ko'paytirilishini rag'batlantirish chora – tadbirlari to'g'risida" 308 – qarori va "Shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollar ko'paytirishni rag'batlantirishni kuchaytirish hamda chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish borasidagi qo'shimcha chora–tadbirlari to'g'risida" gi 2008 yil 21 apreldagi PK–842 qarori chorvachilikni, yilqichilikni, qo'ychilikni, itchilikni rivojlantirishga yana bir turtki berdi.

Prezidentimiz I.A. Karimov qarorlarida chorva mollarni yanada ko'paytirish, shu asosda qishloq aholisining bandligi va daromadlarini, go'sht–sut mahsulotlari ishlab chiqarishning o'sishini oshirish hamda ichki iste'mol bozorining to'ldirilishini ta'minlash maqsadida: shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollarni ko'paytirish va chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish uchun qulay shart–sharoitlar yaratish bo'yicha kompleks chora–tadbirlar 1–ilovaga muvofiq; 2008–2010 yillardagi davrda shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramollar soni ko'payishining maqsadli parametrlari 2–ilovaga muvofiq; 2008–2010 yillarda sug'oriladigan yerlarda yem–xashak ekinlari maydonlarining hisoblab chiqilgan prognozi 3–ilovaga muvofiq ma'qullansin.

Sog'lom hayvonlarni o'stirish va ulardan sifatli hamda to'lig'icha foydalanish maqsadida veterinariya fani va amaliyot mutaxasislari katta ishlar olib bormoqdalar, chunki faqat sog'lom hayvon barcha talablarga javob berishi

mumkin. Shunday ekan, erkak itlarda uchraydigan turli xildagi ko'payish a'zolarining kasalliklari ularning harakat faoliyatini susaytiradi va ekspluatasiya xususiyatlarini pasaytiradi, mudatdan oldin ro'yhatdan chiqarishga majbur qiladi va hatto ayrim hollarda hayvonning o'limiga olib keladi (A.D.Belov, M.V.Plaxotin, B.A. Bashkirov va boshq.,1990; <http://veterinary.academic.ru>).

Yuqorida aytib o'tilgan fikrlardan kelib chiqqan holda, biz erkak itlarda uchraydigan turli xildagi ko'payish a'zolarining kasalliklarining it organizmga ta'sirini o'rganishimiz, oldingi o'rganilgan ilmiy ishlar bilan xozirgi ishlarni o'zaro solishtirib va muloxaza yuritib ish olib borishni maqsadga muvofik deb o'ylaymiz.

Mazkur ishni boshlashda bizlar o'z oldimizga quyidagi maqsadlarni va vazifalarni qo'ydiq:

1. Samarqand shahrida erkak itlar orasida uchraydigan ko'payish a'zolarining turli xildagi kasalliklari tarqalishini o'rganish.
2. Erkak itlardagi uchraydigan orxit kasalligini davolashda qonning morfologik tuzilishini o'rganish.
3. Erkak itlarda uchraydigan orxidlarni konservativ va operativ usullari bilan samarali davolash.

2. ADABIYOTLAR SHARXI

2.1. Erkaklik jinsiy a'zolari va xususan urug'don

kasalliklarining uchrash darajasi, etiologiyasi va patogenezini

S.V.Sedegov (2012–2014) ta'kidlashicha, itlarda uchraydigan urug'don kasalliklari shartli ravishda 5 guruhga bo'lish mumkin: urug'don neoplaziyasi, yallig'lanishlar (orxit, epididimit, orxiepididimit), yallig'lanishsiz kechadigan kasalliklar (gidrosele, spermatosele, urug'don granulyomasi), travmatik va posttravmatik kasalliklar (urug'don o'ralib qolishi, chov – yorg'oq churrasi, degenerasiya), rivojlanish anomaliyalari (kriptorxizm, gipoplaziya).

Urug'don neoplaziyasi. Itlarda ko'p o'sma turlari uchraydi. Barcha testikulyar o'smalar ikki guruhga bo'linadi: germinogen (urug' epiteliydan hosil bo'ladi) va nogerminogen (boshqa to'qimali elementlardan hosil bo'ladi). Veterinariya amaliyatida 3 asosiy o'sma turlari klinik ahamiyatga ega: seminoma, sertolioma (sinonimlari: Sertoli hujayrali o'smasi, androblastoma, opuxol iz sustentositlar o'smasi), leydigoma (sinonimlari: Leydig hujayrali o'smasi, glandulositlar o'smasi, interstisial – hujayrali o'sma).

Klinik belgilar: urug'don xaltasi yoki qorin bo'shlig'ida urug'donning kattalashganini palpasiya orqali aniqlash. Kichik shishlarni aniqlab bo'lmaydi. Qorin bo'shlig'idagi seminomalar juda katta bo'lishi mumkin, ammo ko'p holatlarda ular kichik – 1–2 sm ham bo'ladi, ular faqat 5–10% holatlarda metastaz beradi.

Sertoli hujayralaridan rivojlangan o'smalar eng xavfli bo'lib hisoblanadi. Ularning 10–20% i metastaz beradi.

Urug'donlar yoki ularning ortiqlariga infeksiya jarohatlanishda yoki gematogen yoki limfogen yo'llar orqali kirib qoladi. Undan tashqari, infeksiya siydik chiqaruvchi yo'llar va prostata bezidan tarqalishi mumkin. Urug'don yoki ortig'ining yallig'lanishida shish, og'riq, mahalliy va umumiy haroratning ko'tarilishi kuzatiladi.

Gidrosele – urug'don pardalarining orasida suyuqlik to'planishi. Palpasiyada og'riq sezilmaydi.

Turli zotlarga mansub itlar guruhi tekshirganda ularning sog'ligi, xususan reproduktiv tizimi to'g'risida batafsil ma'lumotlar olindi.

Birinchi etapda tashqi jinsiy a'zolar fizikal tekshirildi va gonadalar joylashgan o'rni aniqlandi.

Urug'don yallig'lanishi va boshqa patologiyalarga aniq tashhis qo'yish maqsadida urug'donlar patologiyasi bo'lgan kriptorxizm va unga ko'pincha yo'ldosh bo'lib keladigan testikulyar gipoplaziya holatlariga e'tibor berildi. Kriptorxizmda urug'don o'ziga mos kelmaydigan muhitda joylashadi, bunda u dissirkulyator, distrofik, disregenerator, skleroplastik o'zgarishlarga chalinadi.

Klinik ko'rik natijalari ko'rsatishicha – erkak itlarda kriptorxizm deyarli tez – tez uchrab turadi va 0,8–15% ni tashkil qiladi. Muallif tekshirgan itlarning 21 tasida (24.1% erkak itlar) bitta yoki ikkita urug'don notabiiy joylashgan edi. Ko'pincha o'ng urug'don urug'don xaltasida joylashmaganligi aniqlandi. Ilmiy ishimiz davomida aniqlandi: kriptorxizm ko'pincha kichik jussali it zotlarida uchraydi, ya'ni barcha tekshirilgan itlardan 6 tasining vazni 10 kg dan past edi. Bu kasallik o'rta va hatto katta itlarda ham kuzatildi, ammo o'ta katta itlarda u topilmadi.

Tekshirishlarda kriptorxizm nemis boksyori, kichik pudel, nemis ovcharkasi, pekines rus toy teryeri, standart taksa, chixuaxua zotlarga mansub itlarda aniqlandi.

Tekshirishlarda qatnashgan itlar orasida 8 tasida kriptorxizm bilan birga testikulyar neoplaziya borligi aniqlandi. 16 boshda kriptorxizm bo'lmasa ham urug'donlarning turli o'smalari topildi.

O'sma kasalligiga chalingan kriptorx itlarning yoshi o'rtacha 6,5 yilni tashkil qildi; urug'donlari tabiiy joylashgan itlar esa o'rtacha 7,5 yoshda edi. Bundan xulosa qilib aytish mumkin – itlarda urug'don o'smalari asosan hayvon 5 yoshdan katta bo'lgandan so'ng klinik rivojlanadi, kriptorx itlarda esa urug'don o'smasining klinik manzarasi bundan ham ertaroq namoyon bo'ladi.

A.S.Tokin (2007–2011) ko'rsatishicha, itlarning o'smali kasalliklari veterinariya tibbiyotining aktual muammosi bo'lib kelmoqda. Katta shaharlarda

30% dan ortiq 5 yoshdan katta itlar turli gistogenez va lokalizasiyaga ega o'smalardan xaloq bo'ladi. Muallifning ma'lumotlariga ko'ra 2007–2010 yillar mobaynida burun bo'shlig'i va burunning qo'shimcha kovaklari zararlanishi simptomokompleksi bilan 175 it aniqlandi. Bunda 73 hayvonda (41,7%) yallig'lanish simptomokompleksi bo'lsa, 102 tasida (58,3%) o'smali jarayon rivojlangan edi. Hatarli o'smalar 86 (84,3%) itda hatarsiz o'smalar esa 16 (15,7%) aniqlandi. Hatarsiz o'smalar (8 holatlarda) 7 yoshdan 9 yoshgacha itlarda uchraydi. Hatarli o'smalarning maksimal miqdori (25 holatlarda) 2–5 yoshli hayvonlarda rivojlanadi. Burun bo'shlig'ining o'smali kasalliklari eng ko'p zotsiz itlarda aniqlandi (27 holatlarda – 26,47%). 13 holatlarda (12,75%) Pudel va 12 holatlarda (11,76%) Layka zotlariga mansub itlar kasallanadi. Eng kam Kolli ovcharkalar kasallanadi.

<http://www.polismed.com/articles-orkhit-01.html> – I.S. Tkach (2013)

takidlashicha, orxit erkaklik jinsiy a'zolarining kasalligi bo'lib, urug'donlar yallig'lanishi bilan kechadi. Ko'p holatlarda orxit boshqa infeksiyon kasalliklarda (epididimit, proktit, tromboflebit, tonzillit, sinusit, bronxit, pnevmoniya, terining yiringli kasalliklari, furunkulez parotit, gripp, terlatma, paratif, pnevmoniya va boshq.) rivojlanadi. Ko'p hollarda ikki tomonlama orxit bepushtlikka olib keladi.

– Orxitar rivojlanishiga ko'pincha infeksiyon omil sabab bo'ladi. Bunda urug'donga infeksiya yaqin joylashgan a'zolar (uretra, prostata, qovuq, to'g'ri ichak) va uzok o'choqlardan (sinusit, bronxit, pnevmoniya va boshq.) kirib kelishi mumkin;

– Kasallik jinsiy yo'l orqali o'tishi mumkin, bunda urogenital infeksiyalar (mikoplazma, xlamidiyalar), spesifik infeksiya (brusellez, terlatma, paratif, sil), zamburug'li infeksiya (kandida va boshq.) asosiy rol o'ynaydi;

– Qator holatlarda orxit virusli kasalliklarda (gripp, paragripp, epidemik parotit) rivojlanadi;

– Infeksiyadan tashqari, orxitar kichik tos va jinsiy a'zoldagi shikastlar (adenomektomiya, asboblarni sistoskopiya, kateterizasiya), yoki turg'unlik holatlarda (varikoz, sovqotish, kam harakatchanlik, tez – tez qochirishda qo'llash,

jinsiy akti majburan to'xtatish, masturbasiya) paydo bo'ladi, bunga qon aylanishining buzilishi yoki urug' suyuqligi chiqishining buzilishi sabab bo'lishi mumkin.

Itlarning brusellezi oxirgi o'n yillikda muxim epizootologik va epidemiologik ahamiyatga ega bo'lgan (A. A. Zinova, 2006).

Kasallik itchilikka sezilarli iqtisodiy zarar yetkazadi, qaysikim erkak itlarning bepushtligi, qimmat naslli hayvonlarni hisobdan chiqarish, urg'ochi itlarning abortlari va it bolalarining o'limidan tashkil topadi. Undan tashqari, bu kasallik zooantropozlar sirasiga kiradi va odamlar sog'ligiga jiddiy havf tug'diradi (A.I. Alekseyev, V.V. Dubinina, A.V. Semenov, 2001; G.S.Kislenko, Yu.S. Korotkov, 2002; G.G. Onimiyenko, 1997; G.A. Penkina, L.Ya. Lixoded, S.L. Savoyskaya, I.V. Tarasevich, 2003; N.A. Stoyanova, V.N. Semenovich, L.M. Sergeiko, 1993).

1966 yilda AQShda tozi itlarda brusellalarning yangi turi topilganligi to'g'risida e'lon qilingan birinchi axborotdan so'ng itlar brusellyozi Kanada, Janubiy Amerika davlatlari, Yevropa, Osiyo va Afrikada qayd etildi. Oxirgi o'n yillikda itchilikning xizmat, ov, dekorativ va boshqa turlari faol rivojlanmoqda. 1986 yilga nisbatan uy ichida yashayotgan itlarning soni 8,5 marotaba oshdi (Ye.A. Arumova, V.P. Gutova, A.S. Yershova, R.L. Naumov, 2002).

Undan tashqari, it brusellyozi epizootiyasining ehtimolligi chetdan ko'p miqdorda itlar olib kelinishi bilan bog'liq.

O'tkir orxit kerakli tartibda davolanmasa surunkali shaklga o'tadi yoki absess rivojlanishi mumkin. Bunda albatta operatsiya qilinishi kerak bo'ladi. Operatsiyada yiringxona drenajlanadi yoki urug'don to'ltg'icha olib tashlanadi. Operatsiya natijasida zararlangan urug'don spermani kam ishlab chiqaradi va keyinchalik pepushtlik rivojlanadi. Urug'donning sekretor funksiyasi ikki tomonlama orxitada ham pasayadi. Shuning uchun davolash ishlarini iloji boricha erta bajarish lozim (<http://argumenti.ru/health/n426/320601> – 16 avg 2015).

Jinsiy a'zo o'smalari barcha hayvonlarda uchraydi. Otlarda ko'pincha sarkoma, melanoma, angiosarkoma, karsinoma, qoramollarda esa papilloma, fibroma, fibropapilloma va kam hollarda havfli o'smalar kuzatiladi.

Etiologiya. Ko'pchilik mualliflar fikricha o'smalarni viruslar chaqiradi. Ular kontakt yo'li bilan va hasharotlar orqali bir hayvondan ikkinchisiga o'tadi. Buqalardagi jinsiy a'zo o'smalari hayvonlar bir – birining ustiga sakraganda yoki sun'iy qin noto'g'ri qo'llanganda hosil bo'ladi.

Klinik belgilar. O'smalar limfoid to'qima mavjud joylarda rivojlanadi: penis boshchasi, prepusiyning ichki varag'i. Ya'ni bu o'smalar limfositlar blastomozida rivojlanish mumkinligini ko'rsatadi (<http://www.vetcare.ru/articles/371.html>).

D.V.Garanin (2005); <http://vebmvc.com/show/show> bo'yicha itlarda qalqonsimon bezi saratonini aniqlash qiyin bo'lgani sababli u juda kam holatlarda uchraydi deb hisoblanadi. Kasallik aniqlangandan so'ng esa ko'pchilik vrachlar uni davolash samarasiz deb biladilar. Ammo bu fikr noto'g'ri ekan. O'z vaqtida qo'llanilgan jarrohlik muolajasi bu jarayonni yo'qotishga yordam beradi.

Ya. A. Kuleshova (2007); <http://www.referun.com/n/opuholi-nosovoy-polosti-u-sobak-i-koshek> takidlashicha burun o'smalari og'ir kechadigan kasalliklar sirasiga kiradi. Ular latentli kechishi bilan ajralib turadi va ertachi diagnostika qiyin amalga oshirilishi bilan xarakterlanadi. Burun bo'shlig'i boshning qo'shimcha kovaklari bilan erkin bog'liqligi va o'zaro murakkab anatomik munosabatda bo'lgani sababli hatarli o'smalar tez vaqtda qo'shni strukturalarga tarqaladi va aniqlanish vaqtiga bir necha sohani zararlaydi. Shuning uchun oxirgi bosqichlarda o'smaning birlamchi lokalizatsiyasini aniqlash qiyin.

2.2. Orxidlarning klinik belgilari va diagnostikasi

<http://www.polismed.com/articles-orkhit-01.html> – I. S. Tkach (2013) takidlashicha, orxitlar diagnostikasi qator holatlarda qiyin kechmaydi. Malakali vrach kasalni ko'rikdan o'tkazib, anamnez ma'lumotlarni tahlil qilgandan so'ng kasallikni aniqlashi mumkin. Muallif kasallik sababini aniqlash va to'g'ri

davolash taktikasini tanlash uchun bir qator laborator va instrumental tekshirishlarni taklif etadi:

Orxidlarning laborator diagnostikasi.

1. Qonning umumiy tahlili.

Tekshirish maqsadi: yallig'lanish jarayonning bosqichini va kasallik kechishining og'irligini aniqlash; natijalar bilvosita kasallik qo'zg'atuvchini aniqlashga imkon yaratadi.

Tekshirish natijalari: bakterial infeksiyada: leykositlar sonining ko'payishi; leykositlar formulaning chapga siljishi; EChT oshishi.

Virusli infeksiyada: leykositlar sonining ko'payishi.

Parazitar infeksiya yoki allergik reaksiyada: eozinofillar sonining ko'payishi.

2. Siydikning umumiy tahlili.

Tekshirish maqsadi: sidik – jinsiy tizimdagi yallig'lanish jarayonning mavjudligi, bosqichi va kechish tabiatini aniqlash.

Tekshirish natijalari: ko'pincha bu ma'lumotlar orxit rivojlanishiga sabab bo'lgan yaqin joylashgan sidik – jinsiy tizimi a'zolarida infeksiyon – yallig'lanish jarayonning mavjudligini ko'rsatadi: leykositlar sonining ko'payishi (piuriya); siydikda eritrositlarning mavjudligi (gematuriya); siydikda silindrlarning mavjudligi.

3. Siydikning bakteriologik tahlili.

Tekshirish maqsadi: kasallikni chaqirgan mikroorganizmlarni aniqlash; mikroorganizmlarning antibiotiklarga sezuvchanligini aniqlash.

Tekshirish natijalari: bakteriyalar (E.coli, stafilokokk, ko'k yiring tayoqcha, protey, streptokokk va boshq.).

4. Uretradan olingan surtmaning tahlili.

Tekshirish maqsadi: kasallik qo'zg'atuvchini aniqlash; yallig'lanish jarayonning bosqichi va kechish tabiatini aniqlash.

Tekshirish natijalari: bo'lishi mumkin: mikoplazma, xlamidiya, gonokokklar, stafilokokklar va boshq. Leykositlar sonining ko'payishi; eritrositlar mavjudligi; shilliq va yiringli hujayralar topilishi mumkin.

5. Urug' suyuqligining tahlili (spermogramma, mikrobiologik tekshirishlar).

Tekshirish maqsadi: patologik mikroorganizmlarni aniqlash; spermatozoidlar holati va ularning otalantirishga imkoniyati to'g'risida ma'lumotlarni olish.

Tekshirish natijalari: bo'lishi mumkin: mikroorganizmlar, leykositlar, eritrositlar mavjudligi; o'zgargan spermatozoidlar; ejakulyat miqdorining kamayishi; spermatozoidlar miqdori va faolligining pasayishi.

Instrumental tekshirishlar.

6. UZI – diagnostika.

Tekshirish maqsadi: tezkor diagnostika usuli; yallig'lanish jarayonning tarqalish darajasini aniqlash; urug'dondagi zararlanishlarning shakli, o'lchamlarini va suyuqlik mavjudligini baholashga imkon beradi.

Tekshirish natijalari: orxitning o'rta darajali og'irligida ultra tovushli tekshirish o'tkazilganda urug'don kattalashgani, exonegativ zonada yengil exostrukturalar mavjudligi kuzatiladi. Bular jarayonga atrof to'qimalar qo'shilganini va reaktiv urug'don istisqosi rivojlanishini ko'rsatadi. Yallig'langan joylar 5–10 mm kattalikda gipoexogen hosilalar ko'rinishida bo'ladi.

7. Magnit–rezonansli tomografiya.

Tekshirish maqsadi: aniqroq bo'lgan diagnostika usuli; kasallik bosqichini, jarayon tarqalishini, kichik yiringli o'choqlarni to'g'ri aniqlashga imkon yaratadi.

Tekshirish natijalari: o'rta og'irlikda orxitada urug'don kattalashgan bo'ladi, unda T2Vida kuchli signalli zonalar va T1Vida past signalli zonalar aniqlanadi. Urug'don strukturasi har xil bo'lib, chegaralari noaniq. Urug'donning reaktiv istisqosi va qon tomirlar miqdorining ko'payishi kuzatiladi.

Ye. N.Nazarova (2014) ta'kidlashicha, prostata bezi yordamchi jinsiy bez bo'lib, qovuq bo'yinchasida, undan kaudal va to'g'ri ichakdan ventral joylashadi.

U prostatik uretrani o'rab turadi. Prostata bezining periferiyasi bo'ylab bezli to'qima joylashgan. Ultratovushli tekshirishda uning tuzilishi kapalakni eslatadi.

Bezni hayvonning istalgan holatida (yotgan, tik turgan) tekshirish mumkin, akustik oyna bo'lib qovuq xizmat qiladi.

O'zgarmagan bez gomogen, chegaralari tekis, bo'limlari simmetrik bo'ladi. Qari itlarda stromal to'qima yaqqol ko'rinadi, ulardagi prostata bezi burushgan bo'ladi (Domennique Pnnick, 2001).

Prostata patologiyasi:

– Prostata bezining giperplaziyasi. Kattalashish odatda simmetrik bo'ladi, o'zgarishlar gomogen yoki o'choqli. Parenximada kistalar rivojlanishi mumkin, ularning chegaralari tekis yoki g'adir – budir bo'lib, aniq ifodalangan;

– Infeksiya va yallig'lanish (prostatit). Prostata parenximasi har xil tuzilgan yoki diffuz – yuqori exogenlikka ega bo'ladi, o'zgarishlar o'choqli yoki diffuz, bir tomonlama yoki simmetrik, ko'p hollarda kista, kalsinat, absesslar qayd etiladi. O'tkir prostatitda atrofida suyuqlik sizib chiqishi, atrof to'qimalarning shishishi, lokal peritonit kuzatiladi;

– Prostata kistalari odatda prostata giperplaziya / skvamoz metaplaziyasi yoki prostatitda rivojlanadi. Kistalarda infeksiya rivojlanganda absesslar hosil bo'ladi. Kista ichidagilar turli exogenli bo'lishi mumkin;

– Prostata bezining o'smalari kam uchraydi. Bunda a'zoning chegaralari noaniq bo'lib, turli strukturaviy o'zgarishlar kuzatiladi, regionar limfatik tugunlar va qovuq kattalashadi;

– Paraprostatik kistalar etiologik jixatdan myuller yo'llarining nuqsonlariga tegishlidir va jarrohlik usul bilan davolanadi. Prostata patologiyasining diagnostikasi faqat ultratovushli tekshirish bilan chegaralanmaslik lozim, chunki turli kasalliklarda – PBDG, prostatit va o'smalar o'xshash manzaraga ega bo'ladi. Aniq tashhisni qo'yish uchun qo'shimcha testlar: prostatik sekretni tekshiriladi, siydik tahlili, PB biopsiyasi bajariladi.

Urug'donlar – erkaklik jinsiy bezlarning parenximasi ultratovushli tekshirishda “nozik strukturaviy tuzilish”ga ega bo'ladi. Ularning mediastinumi

va tashqi pardasi yaxshi ifodalanadi. Ortiqlarida ko'p miqdorda egri kanalchalar ko'rinadi. Hayvonning yoshi kattarishi bilan, parenxima xajmi kichrayadi, urug'donni bo'limlarga bo'ladigan stromal to'siqlar paydo bo'ladi

Urug'donlar patologiyasi:

– Kriptorxizm – bir yoki ikkala urug'donlarning urug'don xaltasida to'liq yoki qisman bo'lmasligi. Qorin bo'shlig'idagi urug'donlar kichik va gipoexogen bo'lib, 20% holatlarda o'smali o'zgarishlarga chalinadi. Bunday urug'don kaudal polyusdan qovgacha, shu jumladan teri ostida joylashishi mumkin;

– Urug'don o'smalari turli strukturaviy tuzilish va o'lchamlarga ega, ko'p holatlarda tasodifan topiladi. O'smalar interstisial, sertolioma, seminomalarga bo'linadi. Ultratovushli tekshirish yordamida differensial diagnostikani bajarib bo'lmaydi (U. Dreimanis, K. Vargmar, T. Falk, M. Cigut, L. Toresson, 2012).

– Orxit – urug'donlarning o'tkir yoki surunkali yallig'lanishi. O'tkir yallig'lanishda – har xil zichlikda gipoexogen strukturaviy tuzilish, urug'don va ortig'ining kattalashishi kuzatiladi. Surunkali orxitda – giperexogen / aralash, donador exogenlik manzara namoyon bo'ladi. Urug'don kichrayishi, abscesslar, kalsinatlar rivojlanishi mumkin. Faqat ultratovushli tekshirish yordamida aniq diagnostikani bajarib bo'lmaydi;

– Urug'don atrofiyasi ko'pincha ikkinchi urug'donda o'sma bo'lganda yoki o'tkazilgan yallig'lanish natijasida rivojlanadi;

– Urug'don buralishi – o'tkir patologiya. Ko'pincha yagona kriteriy bo'lib, dopler usulida tekshirishda bironta urug'donda qon aylanishining buzilishi bo'ladi;

– Gematosele/gidroseye – kam uchraydigan patologiya, ko'pincha o'tkir orxitda yoki tizimli kasalliklarda (assit) hosil bo'ladi;

– Qov / yorg'oq churralarida urug'don xaltasida ichak xalqalari yoki charvi topiladi;

– Epididimit ultratovushli tekshirishda yo'g'onlashgan gipoexogen hosila bo'lib ko'rinadi, palpasiyada og'riq seziladi (X.Levy, A. Fontbonne, 2007).

2.3. Urug'don kasalliklari va shu jumladan orxitlarni davolash

Orxitlarni konservativ davolash.

Orxitlar kasallikning asosiy rivojlanish bosqichlari bo'yicha davolanadi:

Kasallik sababini yo'qotish – orxitlar ko'pincha infeksiya ta'sirida rivojlanishini inobatga olib, antimikroblari terapiya belgilanadi, buning uchun avval qo'zg'atuvchining preparatlarga sezuvchanligi aniqlanishi zarur.

Qo'llanadigan preparatlar:

- Makrolidlar (eritromisin, makropen, sumamed)
- Ftorxinollar (siprofloksasin, levofloksasin, ofloksasin, norfloksasin va boshq.)
- Tetrasiklinlar (metasiklin, doksisisiklin)
- Sulfanilamidlar bilan trimetoprim (biseptol, sulfaton)
- Nitrofurantoinlar (furagin, nitrofurantoin va boshq.)
- Sefalosporinlar (sefuroksim, sefepim va boshq.)

Urug'dondagi yallig'lanishni pasaytirish uchun indometasin, ibuprofen, diklofenak va boshq. qo'llanadi.

Og'riqni bartaraf qilish maqsadida analgetik preparatlar (ketoprofen, ketorolak, analgin va boshq.) va ayrim holatlarda novokain qamali qo'llanadi.

Hayvonga tinch sharoit ta'minlanadi, jinsiy a'zolar sohasida qon aylanishini yaxshilash maqsadida suspensor bog'lam va angioprotektorlar (Agopurin, Dartilin, eskuzan, venoruton va boshq.) qo'llanadi.

Yordamchi davolash usullari – fizioterapiya (UYuCh va boshq.), refleksoterapiya, elektroterapiya.

Orxitlarni jarrohlik davolashga ko'rsatmalar:

- Shikastdan so'ng rivojlangan o'tkir orxit
- Urug'don to'qimalarining yiringlashi (abscess, mikroabscesslar)
- 3 kun mobaynida samarasiz davolash
- Kasallik og'ir kechishi va umumiy ahvoning yomonlashishi
- Urug'donda katta zich hosilalar mavjudligi
- Tez – tez qaytalaydigan surunkali orxit

– Sil kasalligida hosil bo'lgan orxit

Operasiya turlari:

1. Urug'don qismini rezeksiya qilish.

Afzalligi – a'zoning funksional xususiyatini saqlab qolishga imkon yaratadi.

Kamchiliklari – kasallik qaytalash mumkin, asoratlarning rivojlanish havfi yuqori.

Uslubi – mahalliy og'riqsizlantirish ostida bajariladi. Urug'donning zararlangan qismi ponasimon shaklda kesib olinadi.

Oqibati – yaxshi.

2. Orxiektomiya (urug'donni ortig'i bilan olib tashlash).

Afzalligi – og'ir yiringli zararlanish bo'lib, hayvon hayotiga havf tug'ilganda. Infeksiya o'chog'ini butunlay bartaraf etish va uni boshqa to'qimalarga tarqalishining oldini olish.

Kamchiliklari – hayvon nasl qoldirish imkoniyatini yo'qotadi, erkaklik gormonlar miqdori kamayadi

Uslubi – infiltrativ va o'tkazuvchan anesteziya. Urug'don xaltaning old devori 5–10 sm uzunlikda kesiladi va urug'don bilan ortig'i olib tashlanadi.

Oqibati – hayvonning hayoti uchun yaxshi ammo u bepusht bo'lib qoladi, jinsiy gormonlar keskin kamayadi.

3. Kichik kesimlarni bajarish.

Afzalligi – mayda yiringxonalarini topishga yordam beradi va a'zoning dekompressiyasini (bosimni) pasaytiradi.

Kamchiliklari – asosan diagnostik afzallikka ega.

Uslubi – urug'don yuzasida ko'p 5 mm chuqurlikda kichik kesimlar bajariladi.

Oqibati – yaxshi.

4. Urug'don xaltasini punksiya qilish.

Afzalligi – kesim bajarilmaydi, urug'don xaltasidagi bosimni tez va samarali kamaytirishga imkon yaratadi, og'riqni pasaytiradi.

Kamchiliklari – katta infeksiyon jarayonda samara bermaydi.

Uslubi – mahalliy og'riqsizlantirishdan so'ng punksiya qilinadi.

Oqibati – yaxshi (<http://www.polimed.com/articles-orkhit-01.html>).

Epididimit – urug'don ortig'ining yallig'lanishi bo'lib, kuchli og'riq, a'zoning katalashishi va shish rivojlanishi kuzatiladi. Epididimit og'ir asoratlarga olib kelishi va bepushtlikni chaqirishi mumkin.

Kasallikni konservativ davolashga ko'rsatmalar:

- absesslanish belgilari bo'lmagan qari hayvonlar;
- gematomasiz posttravmatik epididimit;
- so'nib boruvchi o'tkir epididimit;
- klinik kechishning yengil va o'rta darajalari;

Mikroblarga qarshi terapiya.

Davolash maqsadi – kasallik sababini (bakteriyalar, xlamidiyalar va boshq.) yo'qotish.

Samarasi – to'g'ri tanlangan preparat kasallik qo'zg'atuvchisini to'liq bartaraf etishga imkon yaratadi. Mikroblarga qarshi terapiya epididimitlarni eng samarali davolash usuli bo'lib qoladi. Preparatlar vena, muskulga yuboriladi va og'iz orqali qabul qilinadi. Ularni qo'llashdan avval sezuvchanligi tekshiriladi. Jarayonda bir vaqtda bir nechta mikroorganizmlar ishtiroq etishi sababli, preparatlar kompleksli qo'llanish tavsiya etiladi.

70% holatlarda qo'zg'atuvchi siydik bilan ajralmaydi, shuning uchun antibakterial preparatlar infeksiyon o'choqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda belgilanib, grammusbat mikrofloraga urg'u beriladi. Dastlab 7–8 kun penisillinlar (oksisillin, ampicillin, benzilpenisillin, metisillin), sulfanilamidlar (sulfalen, sulfadimetoksin, sulfamonometoksin) ishlatiladi, keyin keng spektrli ta'sir etuvchi antibiotiklarga o'tiladi.

Uretrit, prostatit kabi kasalliklardan kelib chiqqan epidimitlarda tetrasiklinlar, ayniqsa makrolidlar (oleandomisin, eritromisin, azitromisin, baktrim, doksisisiklin) bilan kombinasiyada. Og'ir holatlarda parenteral 2–3 avlod sefalosporinlarni qo'llash tavsiya etiladi. Prostata bezining adenomasi, piyelonefrit kasalliklardan hamda adenomektomiyadan so'ng kelib chiqqan

epididimitni asosan E.coli, ko'k yiring tayoqchasi chaqiradi. Bunda ftorxinollar (ofloksasin, norfloksasin, siprofloksasin, levofloksasin va boshq.) qo'llanishi lozim. Alternativ preparat: Ko–trimoksazol. Davolash kamida 4 hafta davom etadi.

Og'riqni pasaytirish va spazmni yo'qotish uchun novokain qamali va analgetiklar qo'llanadi. Urug' tizimchasining qamali 2–3 kun oralatib, 2–3 marotaba bajariladi. Analgetiklar: analgin, ketoprofen, naproksen, ketorolak va boshq. Spazmolitiklar: drotaverin, mebeverin, papaverin va boshq.

UYuCh terapiya yallig'lanishga qarshi ta'sir o'tkazadi va mahalliy himoya reaksiyalarni faollashtiradi (yiringli jarayonni chegaralaydi. O'tkir jarayonda 6 muolaja belgilanadi. Hayvon erkinroq harakatlanish uchun suspensor bog'lam qo'llanadi (<http://www.polismed.com/articles-ehpididimit-01.html>–Tkach I. S. 2013).

Orxidlarni halq tabobati vositalari bilan davolash.

Zig'ir (lyon) o'simligi tomiridan tayyorlangan qaynatma. Bir osh qoshiq maydalangan ashyoga 250 ml qaynoq suv qo'shiladi va 20 daqiqa olov ustida ushlanadi. So'ng qaynatma 30 daqiqa tindiriladi va suzdiriladi. O'rta va katta jussali itlarga 50 mgdan kuniga 3–4 marta ichiriladi.

Propolisni kakao yog'i, sut yoki zig'ir yog'i bilan aralashtirib kasallangan joyga primochka qilinadi (<http://urologyforum.ru/threads/63/>; <http://kapilyar.ru/>. 2014).

Varikotsele – bu urug' tizimchasi sohasidagi venalarning o'zgarishidir. O'zgarishlar varikoz ta'siri va urug'dondan venozli qon oqib chiqishining buzilishi bilan bog'liq.

Varikozga uchragan qon tomirlar yallig'langanda va natijada yorilganda, urug'don xaltasi sohasiga qon quyiladi. Kasallikning jadallashgan shaklida zararlangan urug'don kichrayadi, spermatogenez buziladi va keyinchalik bepushtlik rivojlanadi. Odamlar orasida, katta yoshli erkaklarda varikosele 17% holatlarda kuzatiladi. Territorial joylashish va yoshga bog'liq holda kasallikning uchrash darajasi juda har xil bo'lishi mumkin. Bunda ko'pchilik holatlarda chap

tomonlama varikosele uchraydi. Ung tomonlama varikosele 3–8%, ikki tomonlama esa 2–12% larda kuzatiladi (<http://simptomer.ru/bolezni/muzhskie-zabolevaniya/135-varikotsele-simptomy>).

Orxit – bu urug’donning yallig’lanishi. Kechishi bo’yicha u o’tkir va surunkali bo’lishi mumkin. Birinchisi 2–4 haftalar, ikkinchisi esa bir necha oylar davom etishi mumkin.

Odatda orxit boshqa infeksiyalarda rivojlanish mumkin. Odamlarda orxit parotit (quloq oldi so’lak bezining yallig’lanishi), gripp, gonoreya va termatla kasalliklarida, hayvonlarda esa brusellyoz, xlamidioz kasalliklarida paydo bo’ladi.

Kasallikning rivojlanish mexanizmi murakkab kechadi. Avval, birlamchi infeksiya ta’sirida qonda spesifik antitelalar rivojlanadi, keyinchalik esa ular urug’don to’qimasini begona qilib qabul qiladi, va natijada parenximaning yallig’lanishi boshlanadi. Undan tashqari orxitlar bevosita mexanik shikast va organizmning allergik reaksiyada ham rivojlanish mumkin.

Orxit – qiyin davolanadigan kasallik bo’lib, mahalliy simptomatika namoyon bo’lgandan uni iloji boricha erta davolash kerak, chunki urug’don absessi rivojlanib, hayvon hayotiga havf tug’dirish mumkin.

Diagnostika. Bu kasallikda asosiy e’tibor laborator diagnostikaga qaratiladi. Urug’donlar yallig’lanishida qonning umumiy tahlili va siydik tahlili o’tkaziladi. Undan tashqari siydik va eyakulyat na’munalari ozuqa muhitiga ekilishi kerak. Bu usulda kasallik qo’zg’atuvchisi aniqlanadi.

Tekshirishning instrumental diagnostikasiga ultratovushli tekshirish kiradi. U nafaqat urug’dondagi patologik jarayonni, balki uning bosqichini aniqlashga imkon yaratadi.

Orxitni asosan bakterial infeksiya chaqirishi sababli, davolash ishlari birinchi navbatda unga qarshi yo’naltirilishi lozim. Buning uchun odamlarda sefalosporin (sefotaksim) va ftorxinolon (siprofloksasin) guruhlarga kiradigan antibiotikli preparatlar qo’llanadi (<http://www.medicalj.ru/diseases/mens-health/1034-orhit-vospalenie-yaichka> – A.N. Plotnikov (2016).

Surunkali orxitni davolash uchun quyidagi terapevtik usullar qo'llanadi: antibakterial preparatlar, isituvchi muolajalar, fizioterapevtik muolajalar.

Orxit rivojlanishining oldini olish quyidagilardan iborat bo'ladi: urug'dondagi mavjud yallig'lanish jarayoni rivojlanishining oldi olinadi, infeksiyon kasalliklar o'z vaqtida davolanadi, siydik – jinsiy a'zolar kasalliklarining oldi olinadi, prepusiy va urug'donda mexanik shikast hosil bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi (<http://zdorovi.net/bolezni/orhit.html> 2013).

Orxitlar mexanik shikast, organizm intoksikasiyasi, infeksiyon kasalliklar, invazyalar, qizib ketish va sovqotish, radiasion nurlanish ta'sirida hosil bo'ladi. Ayrim holatlarda, umumiy qin pardasi yoki yorg'oq yallig'langanda, ikkilamchi kasallik shaklida paydo bo'ladi.

Orxitlar rivojlanishiga buyrak kasalliklari, sistit, oshqozon – ichak tizimi kasalliklari moyillik yaratadi.

Yallig'lanish rivojlanishi natijasida egri kanalchalardagi muhit o'zgaradi, sekret suyuqlashadi va natijada spermatozoidlar hosil bo'lishi buziladi (<http://bethoven-vet.ru/orkhit>).

Itlarda orxitlar odatda bakterial infeksiya ta'sirida hosil bo'ladi. Ko'p holatlarda orxitlar it o'lati, mikozlar (blastomikoz va koksidiomikoz) hamda erlixioz kasalliklarida paydo bo'ladi. To'qimalar ezilganda jarayon yanada og'ir kechadi, chunki jarayon autoimmun patologiya sifatida namoyon bo'ladi.

O'tkir orxidlarning yana bitta yomon asorati – testikulyar absesslardir. Ular juda katta bo'lishi mumkin, ayniqsa og'ir holatlarda yiring terini teshib chiqadi va katta oqma hosil bo'ladi. Autoimmun orxitni davolash uchun immunodepresantlar qo'llanadi, bunda prednizon vositasi yaxshi samara beradi (http://vashipitomcy.ru/publ/sobaki/bolezni/orkhit_u_sobak_osnovnye_svedeniya_i_lechenie/26-1-0-1017).

A.I. Blednov (1998) takidlashicha, yirik shoxli hayvonlar hozirgi vaqtdagi saqlash texnologiyasi (30–50 boshdan bir boksda) bo'yicha saqlanganda ya'ni ular shoxsizlanmasa va dumlari kesilmasa, gidrosmiv qo'llanganligi sababli namlik yuqori bo'lsa, pollar va oxurlar buzuq, to'siqlar va avtosug'orish

uskunalari yaxshi ishlamaganda, hayvonlarda to'qimalarning turli mexanik shikastlari kuzatildi: jarohatlar –8,6–10,5%, gematomalar –1,8–2.4%, balanopostitlar –10,5–14,5%, orxitlar –1,0–1,4%, proktitlar –1,2–1,8%, pododermatitlar –7,8–11,6%, dermatitlar –7,2–8,5% va boshq.

Ye.V. Podobed (2015) takidlashicha, balanopostit – bu penis boshchasi va prepusiy shilliq qavatining yallig'lanishidir. Balanopostitlarni chaqiradigan ko'p sabablar aniqlangan, shu jumladan bakterial infeksiya, fimoz (jinsiy olatning boshchasi prepusiy teshigidan chiqa ololmasligi), o'smalar. Balanopostit deyarli eng ko'p tarqalgan kasalliklar sirasiga kiradi va asosan bichilmagan hayvonlarda rivojlanadi.

Balanopostit belgilari:

- Jinsiy a'zoning uchidan yoki prepusiydan sariq yoki sariq – zangori yiring chiqib turadi;
- Vaqti – vaqti bilan prepusiy yoki jinsiy a'zodan quyuc qon aralash suyuqlik ajraladi;
- Jinsiy a'zoning atrofi va prepusiy shishadi va yallig'lanadi;
- Hayvon jinsiy a'zoning uchini va atrofini tez – tez yalaydi;
- Diskomfort holati;
- Jinsiy moyillikning yo'qolishi;
- Jiddiy infeksiya o'rnashganda lanjlik, haroratning ko'tarilishi, ishtaha yo'qolishi kuzatilishi mumkin.

Diagnostika. Birinchi navbatda prepusiy va jinsiy a'zo e'tibor bilan ko'zdan kechiriladi va tekshiriladi. Bunda shikast, yot narsalar va o'sma bor yoki yo'qligi aniqlanadi. Jiddiy tekshirishlar o'tkazilishi kerak bo'lganda anesteziya qo'llanadi.

Asosiy tahlillar natijalari (qonning umumiy va biokimyoviy tahlillari, siydikning umumiy tahlili) odatda me'yorda bo'ladi. Ammo qovuq, prostatada infeksiya bo'lganda yoki tizimli infeksiyada natijalar o'zgarishi mumkin. Qovuqdagi siydik ifloslanmasdan olinishi lozim. Ayrim holatlarda mikrobiologik tekshirishlar olib boriladi.

Davolash. Balanopostitning yengil shaklida prepusial xalta toza saqlanadi, hayvon uni ko'p yalab, o'ziga qo'shimcha zarar yetkazmasligi uchun unga maxsus "yoqa" kiygiziladi.

Og'ir holatlarda, kasallik surunkali kechganda quyidagi ishlarni bajarish lozim:

- Asosiy sabab bartaraf etiladi. Bu bitishma, o'sma yoki patologik to'qimali hosila bo'lishi mumkin;
- Antibiotiklar qo'llanadi;
- Prepusiyning shilliq pardasi har kuni antiseptik vosita bilan yuviladi;
- Prepusiy terisiga antibiotikli malham suriladi;
- Boshqa muolajalar foyda bermaganda hayvon bichiladi.

Kasallik oqibati. To'g'ri va kerakli muddatli davolashga qaramasdan kasallik residivi bo'lishi mumkin, ayniqsa sababi to'liq yo'qotilmagan bo'lganda.

3. SHAXSIY TEKSHIRISHLAR

3.1. Tadqiqotlar ob`yekti va uslublari

Samarqand shaxridagi shaxsiy xo`jaliklaridan keltirilgan itlarning suyak sinishlarini aniqlash va tasniflash ishlari asosan Samarqand qishloq xo`jalik instituti, Veterinariya fakulteti qoshidagi jarrohlik klinikasi va kasal hayvonlar saqlanadigan joylarda o`tkazildi. Bunda o`rta kattalikda, 2–6 yoshli kasal itlarning zoti, yoshi, tana massasi, ekspluatatsiya turi va boshqa xususiyatlari qayd etib kelindi.

Kasallangan hayvonlarni davolash jarayonida quyidagi parametrlar tahlil qilinadi: hayvonni saqlash qoidalariga rioya qilinishi, kasallik klinik manzarasining xarakteri, davomiyligi va xususiyatlari; kasallik residivini chaqirishi mumkin bo`lgan omillar mavjudligi; o`tkazilayotgan terapiyaning samaradorligi.

Davolash sxemasi

Yiringli orxit bilan kasallangan hayvonlar konservativ va operativ usullar bilan davolanishga rejalashtirildi.

Konservativ davolashga ko`rsatmalar: Yiringlash belgilari mavjud bo`lmagan qari hayvonlar, gematomasiz kechadigan posttravmatik orxitlar, so`nish bosqichidagi o`tkir orxit yoki kasallik yengil va o`rta og`irlikda kechganda.

Kasallik sababini (bakteriyalar, xlamidiyalar va sh. o`.) yo`qotish uchun antimikrobli terapiya qo`llandi.

Orxidlarda bakterial flora 70% holatlarda siydikda topilmaydi, shuning uchun qo`zg`atuvchiga mos keladigan antibakterial preparatni tanlash qiyin bo`ladi. Antimikrobli vosita infeksiyon o`choqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Nazorat va tajriba guruhlaridagi hayvonlarni davolash uchun antimikrobli vosita sifatida ampicillin va sulfadimetoksinni tanlandi. Qo`llash muddati 7–8 kunlar.

Preparatlar muskul orasiga yuborildi. Og'ir yiringli orxitada antibiotik to'g'ri urug'don parenximasiga yuboriladi.

Tana harorati yo'qori bo'lganda nosteroidli yallig'lanishga qarshi vosita – parasetamol qo'llandi.

Kasallik etiologiyasidan qat'iy nazar, yiringli jarayon rivojlanganda yoki urug'don palpatsiyasida so'rilib ketmaydigan zich hosilalar aniqlanganda jarrohlik aralashuv qo'llanadi.

Tajriba guruhidagi hayvonlarda og'riq sindromini va spazmni yo'qotish maqsadida urug'don tizmachasining aylana novokain qamali 2-3 marta, har 2-3 kunda; analgetik – ketoprofen va spazmolitik – papaverin qo'llandi.

Yiringli og'irlashgan orxidlarda konservativ davolash tadbirlari samara bermasligi mumkin shuning uchun bitta yoki ikkala urug'donlar olib tashlanadi.

1–jadval

Davolash sxemasi

T.r.	Guruhlar	Hayvonlar soni	Davolash tartibi
1	Tajriba	5	1. Antibakterial terapiya uchun ampisillin va sulfadimetoksinlarni muskul orasiga yuborish; 2. Urug' tizmachasining aylana novokain qamali; 3. Analgetik – ketoprofen; 4. Spazmolitik – papaverin; 5. Operativ usul.
2	Nazorat	5	1. Antibakterial terapiya uchun ampisillin va sulfadimetoksinlarni muskul orasiga yuborish; 2. Analgetik – ketoprofen; 3. Spazmolitik – papaverin; 4. Operativ usul.

Itlardagi urug'don yallig'lanishini davolash usulini ishlab chiqish va samarasini bilish maqsadida biz klinikaga keltirilgan 10 bosh har xil zotlarga

mansub kasal itlardan 5 boshdan iborat tajriba va nazorat guruhlarini tashkil qildik.

Tadqiqotlarni o'tkazishda quyidagi ishlar bajarilishi rejalashtirildi:

1. Samarqand shahrida itlar orasida urug'don yallig'lanishining uchrash darajasini aniqlash.
2. Itlardagi urug'don yallig'lanishida zararlangan to'qima va qonning morfologik tuzilishini o'rganish.
3. Itlarda urug'don yallig'lanishini samarali davolash usulini aniqlash va sinab ko'rish.

3.1.1. Kasallangan itlarni tekshirish usullari.

Barcha raqamli material komp'yuterda «Excel» dasturida matematik–statistik ishlangan.

Tajribalar o'tkazish jarayonida kasal hayvonlar morfologik va ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlarga tekshirish uchun quyidagi usullardan foydalandik:

1. *Anamnez* ma'lumotlarini yig'ish. Bu usul yordamida quyidagilarni aniqladik: hayvon qachon va qanday sharoitda jarohatlandi, hayvonni saqlash, oziqlantirish, jarohat yetkazgan buyumning xarakteristikasi, ozuqa tarkibi, hayvon saqlanadigan joyning sharoiti, kasallangan hayvonga birlamchi yordam ko'rsatilganmi va kim tomonidan, bog'lam ishlatilgan bo'lsa uning holati.

2. *Ko'zdan kechirish usuli*: bu usul yordamida quyidagilar aniqlandi: patologik jarayoning joylashgan joyi, qanday to'qimalar zararlanganligi, patologik jarayonning katta – kichikligi, jarohat chetlarini bir biridan qochishi, patologik jarayondan ajralib turgan suyuqlik xarakteri va miqdori, jarohat devorlarinig holati, jarohat bo'shlig'idagi begona jismlar mavjudligi va ularning miqdori.

3. *Paypaslash usuli*. Bu usul yordamida quyidagilar aniqlanadi: mahalliy harorat, og'riq, suyuqlik xarakteri, kreptasiya tovushlari, to'qimalardagi shishlarning mavjudligi va ularning holati.

4. *Patologik jarayonning ichini zond yordamida tekshirish*. Bu usul zond yoki ko'rsatuvchi barmoq bilan bajarilishi mumkin. Bu usul bilan quyidagilar

aniqlanadi: jarohat chuqurligi, to'qimalarning qatlamlarga ajratilishini, jarohat bo'shlig'idagi cho'ntak, oqmalar mavjudligi, to'qimalar zichligi va holati.

3.1.2. Qonni tekshirish usullari

Tajribalarni o'tkazish jarayonida kasal itlar qoni morfologik va ayrim biokimyoviy ko'rsatkichlarga tekshiriladi. Buning uchun quyidagi usullardan foydalandik:

1. Eritrotsitlarni sanash.

Buning uchun Goryayevning sanoq kamerasidan foydalandik. Unda 225 ta kvadrat bo'ladi va ular 16 ta katta kvadratga birlashadi. Eritrotsitlar 5 ta katta kvadratlarda sanaladi. Uning har bittasi 16 ta mayda kvadratni o'z ichiga oladi, ya'ni jami $16 \times 5 = 80$ ta kvadrat. Kamerani ishga tayyorlash: kamera ustiga buyum oynachasi berkitiladi va yuzasida kamalak rangda halqa hosil bo'lgan bir – biriga ishqalanadi, so'ng kamera mikroskopga qo'yiladi. Qon qizil xonachasi bo'lgan melanjerga olinadi. Melanjerda 3 ta raqam yozilgan: 0,5 – 1 – 101. Qon 0,5 yoki 1 gacha olinadi va 3 % osh tuzi eritmasi bilan 101 ko'rsatkichigacha aralashtiriladi. Shundan so'ng bir necha marta aralashtirilib, birinchi tomchi tashlanib, ikkinchisi kamera va buyum oynachasi oralig'iga qo'yiladi va sanash boshlanadi. Eritrotsitlar soni quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$X = \frac{A \cdot 4000u}{80}$$

Bunda: A – 5 kattakvadratda eritrotsitlar soni
4000 – Goryayev to'rining hajmi
u – aralashtirish darajasi

2. Qonda leykotsitlar sonini aniqlash.

Bu ham Goryayev sanoq kamerasida aniqlanadi. Qon oq qon tanachasi bor melanjerga olinadi (10.5 – 11 gacha). Qon olingandan keyin 3 % sirka kislotasi bilan aralashtiriladi. Melanjerdagi qon, aralashtirilgandan keyin ikkita tomchi

tashlanib, uchinchisini kamera va buyum oynachasi oralig'iga qo'yiladi. Leykotsitlar 100 ta katakda sanaladi. Leykotsitlar quyidagi formula bilan topiladi:

$$X = \frac{A*4000*200}{1600}$$

Bunda: A – 100 katta kvadratlardagi leykotsitlar soni
1600 – aralashtirish darajasi.

3. Leykotsitar formulasini sanash.

Buning uchun bir tomchi qon yog'sizlantirilgan buyum oynachasiga tomizilib, ikkinchi buyum oynachasi bilan yupqa surtma tayyorlanadi. Quritilgandan so'ng surtma 15 – 30 minut spirtida fiksatsiya qilinadi va 15 – 28 daqiqa davomida Romanovskiy – Gimza usulida bo'yaladi. Buyoq yuvilgandan keyin, mikroskop tagida surtmadagi 100 ta har xil turdagi leykotsitlar sanaladi va ularning foizi chiqariladi.

4. Eritrotsitlarning cho'kish tezligini aniqlash.

EChT – Panchenkov asbobi yordamida kapillyarlardan (10mm) tuzilgan. Qonni olishdan oldin kapillyar 5 % limon kislotasi bilan chayiladi. Shundan so'ng qon olinadi va soat oynachasiga solinadi. Aralashtirilgandan keyin qon kapillyarga 100 belgisigacha olinadi va aparatga berkitiladi. Har 10 minutda kuzatilib eritrotsitlar cho'kish tezligini aniqlaymiz.

5. Nb – gemoglobinning qondagi miqdorini aniqlash.

Gemoglobin FEK asbobida aniqlanadi, uning to'lqin uzunligi 540 ga teng. Gemoglobin oksigemoglobin bo'yalishi buyicha aniqlanadi, buning uchun ammiak eritmasi ta'sirida qon gemolizga uchraydi. Byuretkada yordamida probirkaga 4 ml 0.04 % ammiak eritmasi quyiladi. Shundan so'ng Salli gemometrining kapillyariga 20 mm kub qon olinib ammiak eritmasiga solinadi, 3 marta chayqaladi. Gemoglobinni aniqlash uchun namuna kyuvetkaga qo'yiladi, (uni qalinligi 10mm) va FEKning yashil svetofiltrida ko'riladi. Barabaning o'ng

shkalasidan olingan eritma zichligi ko'rsatkichini maxsus jadvalga qo'yib, qondagi gemoglobin miqdori aniqlanadi.

Kasal hayvonni klinik kuzatish bilan birgalikda qonning morfologik tekshirishlari o'tkazildi. Qon operasiyadan avval va 2, 7, 15, 25, 35, 45 kunlarda tekshirildi.

Qonning morfologik tekshirishlari «Medonic» gematologik analizatorida o'tkazildi. Leykogrammani chiqarish uchun qondan tayyorlangan surtmalar Romanovskiy–Gimza bo'yicha bo'yaldi.

<http://www.webmvc.com>

2–jadval

Ch. Kolodiyev bo'yicha itlar qonining morfologik ko'rsatkichlar me'yorlari, 1996

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Me'yor qiymati
Gemoglobin	x 10 g/l	12–18
Eritrositlar	x 10 ¹² /l	5,5–8,5
Leykositlar	x 10 ⁹ /l	6,0–17,0
Segment yadroli neytrofillar	% x 10 ⁹ /l	60–703,0–11,4
Tayoqcha yadroli neytrofillar	% x 10 ⁹ /l	0–30–0,3
Limfositlar	% x 10 ⁹ /l	12–301,0–4,8
Monositlar	% x 10 ⁹ /l	3–100,15–1,35
Eozinofillar	% x 10 ⁹ /l	2–100,1–0,75
Bazofillar	–	Kam hollarda
Bikarbonatlar (rezerv ishqor)	mmol/l	18,1–24,5
Albumin	g/l	25,8–39,7
Albumin/globulin	nisbati	0,7–1,9
Globulin	g/l	20,6–37,0
Umumiy oqsil	g/l	55,1–75,2

3–jadval

M.Filippov bo'yicha qon zardobining biokimyoviy ko'rsatkichlar me'yorlari, 2001

Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Normadagi qiymati
Glyukoza	Mmol/l	3,3–6,0
Oqsil	g/l	54–77
Albumin	g/l	25–37
Xolesterin	Mmol/l	3,3–7,0
Umumiy bilirubin	Mkmol/l	0–7,5
Alaninaminotransferaza	U/l	10–55
Aspartataminotransferaza	U/l	10–55
Laktatdegidrogenaza	U/l	50–495
Ishqorli fosfataza	U/l	10–150
Gamma–glutamiltransferaza	U/l	1–10
Amilaza	U/l	300–2000
Mochevina	Mmol/l	4,3–8,9
Kreatinin	Mkmol/l	35–133
Noorganik fosfor	Mmol/l	0,7–1,8
Kalsiy	Mmol/l	2,0–2,7
Magniy	Mmol/l	0,72–1,2
Siydik kislotasi	Mkmol/l	do 160 (P.F.Suter bo'yicha, 2001)
Trigliseridlar	Mmol/l	0,56 (P.F.Suter bo'yicha, 2001)
Elektrolitlar:		
Kaliy (K ⁺)	Mmol/l	4,0–5,7
Natriy (Na ⁺)	Mmol/l	141–155

3.2. Hayvonlarning ko'payish a'zolari

Ko'payish organlari erkak va urg'ochi hayvonlarning urchish organlariga bo'linib, nasl qoldirish vazifasini bajaradi. Erkak hayvonlarning jinsiy organlari erkak jinsiy hujayralar – sperma ishlab chiqaradi. Spermalar urg'ochi jinsiy hujayralar – tuxum bilan qo'shilib urug'lanishi natijasida embrion, ya'ni yosh organizm paydo bo'ladi. Erkak hayvonlar jinsiy organlariga: juft urug'don, urug' xaltasi, urug' yo'li, qo'shimcha jinsiy bezlar va jinsiy a'zo kiradi. Ko'payish organlari boshqa tizimlar bilan, masalan, ovqat hazm qilish, nafas olish, qon aylanish va nerv tizimlari bilan bevosita bog'liq bo'ladi, chunki butun kerakli moddalarni shu tizimlar orqali oladi.


Erkak hayvonlarning ko'upayish organi

Urug'don xaltasi teri burmasidan iborat bo'lib, chovda ikkita yarim xaltacha shaklida joylashadi. Bu xaltachalarda urug'don, urug'don ortig'i va

urug'donni tutib turadigan tizimchalar bo'ladi. Urug'don xaltasi hamma hayvonlarda bir xil emas, lekin ko'pchilik hayvonlarda (buqa, qo'chqor, taka va ayg'irlarda) ikkala sonning o'rtasida joylashadi. Cho'chqa, it, mushuk va tuyalarda orqa chiqaruv teshigining pastida bo'ladi. Urug'don xaltasi yorg'oq, urug'donni tutib turadigan tizimchalar va qin pardasidan iborat.

Yorg'oq teri va elastik muskul pardadan tuzilgan. Uning terisi mayda jun bilan qoplaigan, yog' va ter bezlari juda ko'p. Ba'zi hayvonlar (yirtqichlar va kavsh qaytaruvchilar) xaltachasida jun juda zich bo'ladi. Boshqa hayvonlarda (ot, buqa, cho'chqalarda) jun juda siyrak bo'ladi.

Elastik muskul parda teri ostiga yopishgan zo'lib, silliq muskul to'qimalaridan tuzilgan. Bu muskul qisqarganda urug'don xaltasining terisi burishadi. Elastik muskul urug'don xaltachasining o'rtasidagi to'sqich pardani hosil qiladi. Urug'donni tutib turadigan tizimcha



1–rasm. **Erkak hayvonlarning jinsiy organlari**

A–it; B–choʻchqa; C–qoramol; D–otlarning jinsiy organi: 1–urugʻdon; 2–urugʻdon ortigʻi; 5–urugʻdonning chov payi; 4–qin pardasi; 5–urugʻdon xaltasi; 6–urugʻdon chilviri; 7–urugʻdon yoʻli va nerv kon tomirlari; 9–ampula; 10–pufaksimom bez; 11–prostata bezi; 12–piyozchasimon bez; 13–jinsiy aʻzo; 13¹–jinsiy aʻzo burmasi; 14–piyozchasimon kovak muskul; 15–jinsiy aʻzo muskuli; 16–jinsiy aʻzoning boshi; 17–jinsiy aʻzoning suyagi; 18–teri xaltacha; 19–teri xaltacha muskuli; 20–chov kanalining ichki teshigi; 21–teri xaltacha divertikuli; 22–oraliq; 23–tos suyagining devori.

muskul koʻndalang targʻil muskul boʻlib, u qorin devorining ichki qiyshiq muskulidan kelib chiqadi. Bu muskul umumiy qin pardaning yon tomonidan unga mahkam yopish–gan holda joylashadi. Yorgʻoqdan fassiya (toʻqima pardasi) ajralib, teri bilan juda yuza birlashadi. Shuning uchun urugʻdon–ning umumiy qin pardasini teridan oson ajratish mumkin (1–rasm).

Umumiy qin pardasi urugʻdoy ustini xalta shaklida oʻrab oladi. U tashqi fibroz va ichki seroz pardadan iborat boʻladi. Bu pardalar qin boʻshligʻini hosil qiladi. Zich tolasimon plastinka qorin devori koʻndalang fassiyasining davomi hisoblanadi. Shuning uchun ham u chov kanali bilan bogʻlangan. Yuqori qismi qorin boʻshligʻi bilan birlashadi. Seroz parda urugʻdonning orqa qismiga va urugʻ ortigʻiga oʻtib, urugʻdonning seroz pardasi va xususiy pardasini hosil qiladi. Bunda xususiy parda visseral seroz varaq hisoblanadi. Umumiy qin pardasining ortigʻi tomondan yorgʻoqning kuchsiz payi yordamida yorgʻoq bilan qoʻshiladi.


Urugʻdon va urugʻdon ortigʻi

Urugʻdon juft jinsiy bez boʻlib, erkaklik jinsiy hujayralar — sperma ishlab chiqarish uchun xizmat qiladi. Jinsiy hujayralar urugʻdonda murakkab rivojlanish yoʻlini bosib oʻtadi. Bundan tashqari, urugʻdon ichki sekresiya bezlari sifatida jinsiy gormonlar ishlab chiqarib, organizmni uygʻotishda muhim rol oʻynaydi. Urugʻdon har xil hayvonlarda turlicha shaklda boʻlib, urugʻ xaltachasida

gorizontal, vertikal va qiyshiq holatda joylashadi. Urug'donni urug'don tizimchasi tutib turadi. Urug'donning bosh va dum qismi, ikki cheti – erkin va urug' ortig'i tomon chetlari, yon hamda urta yuzalari bo'ladi.

Urug'donning bosh qismida urug'don ortig'ining boshi joylashadi. Bu qismga qon tomirlari, nervlar kelib, urug' tizimchasini hosil qilishda qatnashadi (2–rasm).

Urug'donning dum qismi ancha qalinlashgan bo'lib, undan urug' yo'li kelib chiqadi. Urug'don ortig'i tomon chetida urug'don pardasi (burmasi) va urug'don ortig'ining tanasi joylashadi. Urug'don ortig'i ba'zi hayvonlarda ancha qalin, ba'zilarida esa juda yupqa bo'lib, o'rta yuzasi bilan urug'donga yopishib turadi. Urug'don ortig'i birikkan tomonning qarama–qarshisi uning erkin cheti deyiladi. Urug'donning tashqi yuzasi maxsus qinparda to'ri



2–rasm. Urug'donning va urug'don ortig'ining tuzilish sxemasi:

1–oq parda; 2–urug'donning oraliq qismi; 3–to'siq; 4–urug'donning egri kanallari; 5–chiqaruvchi yo'l; 6–urug'don ortig'i yuli; 7–urug' yo'li; 8–urug'don kameralari; 9–to'g'ri kanallar.


bilan o'ralgan. Uning ostida pishiq biriktiruvchi to'qimadan iborat oq parda bor. Bu parda urug'donning bosh qismi bilan birlashadi va uning oraliq qismida aniq bo'lmagan tasmalar hosil qiladi. Bu tasmalardan tashqi oq pardalar tomon bir

qancha to'sqichlar o'tadi-da, urug'donning ichki qismini bir nechta kameralar ichida egri-bugri kanalchalar joylashadi. Urug'don ichiga to'sqichlar orqali bir qancha tomirlar va nervlar kiradi (3-rasm).




3-rasm. Urug'don va ortig'ining kesimda ko'rsatilgani

Egri-bugri kanalchalar devori hujayralarining bir qismi kanalchalarni oziqlantiradi, boshqalari esa spermaning har xil davrini hosil qiladi. Egri-bugri kanalchalarning uzunligi 0,1–0,2 mm keladi. Ular to'g'ri kanalchalar aylanib, kubsimon yoki yassi hujayralar bilan qoplanadi. To'g'ri kanalchalar urug'donning ichki qismi tasmalari orasida joylashadi va bir-biriga qo'shilib, urug'don to'rini hosil qiladi. Bu joy gaymor tanasi deb ham yuritiladi.



4–rasm. **Urug’don va ortig’ining sxematik ko’rinishi**

Urug’don ortig’i tayyor urug’ni vaqtincha saqlash uchun xizmat qiladi. Urug’don ortig’i urug’ni o’tkazuvchi yo’l bo’lib, jinsiy aloqa vaqtida devoridagi muskullar qisqarishi natijasida spermani yo’l tomon chiqaradi hamda sekret ishlab chiqarib, urug’ hujayralarini oziq bilan ta’minlaydi va ular qo’shilguncha hayotini saqlaydi.



5–rasm. **Urug’don xaltasi qavatlarining sxemasi:**

1–xaltacha terisi; 2–elastik parda; 3–xaltacha to'sig'i; 3–elastik parda fassiyasi; 4–tashqi ko'taruvchi muskul; 5–umumiy qin pardasi; 6–qin pardasi bo'shlig'i; 7–maxsus qinpardasi; 8–urug'don; 9–urug'don ortig'i; 10–urug'don chilviri; a–fibroz qavat; b–seroz qavat.

Urug'don ortig'ining boshi, tanasi va dumi bo'ladi. Boshi, chiqaruv kanalchalaridan hosil bo'lib, ularning soni 7–20 ta, diametri 0,1–0,3 mm bo'ladi. Urug' hujayralarini olib ketuvchi kanalchalar urug'don to'ridan boshlanadi va urug'don boshi tomon o'tib, urug'don ortig'ining yo'liga tushadi. Bu yo'lning umumiy uzunligi otlarda 72–86 m bo'ladi. Har qaysi burma kanalchani diametri 1 mm ga yetadi. Kanalchalar urug'don ortig'ining dum tomonida o'rug' yo'liga qo'shiladi. Urug'don ortig'ining dum qismi urug'don bilan maxsus pay orqali, umumiy parda bilan esa chov payi orqali birlashadi. Bu paylar mollarni bichish vaqtida kesiladi. Kavsh qaytaruvchilar urug'doni boshqa hayvonlarnikiga qaraganda ancha katta, qorako'l qo'ylarda ellips shaklda bo'ladi. Urug'don ortig'ining kanali buqalarda 40–50 m ga yetadi. Kavsh qaytaruvchi hayvonlarda egri–bugri kanalchalar yaxshi rivojlangan. Urug'donning vazni buqalarda 300–350 g, qorako'l qo'chqorlarda 250–320 g, takalarda 145–190 g bo'ladi. Urug'don ortig'i cho'chqalarda katta, ellips shaklda, uning boshi va dumi yaxshi rivojlangan, tanasi qalin, parenximasi sarg'ish kul rang, kanalining uzunligi 40–86 m, urug'donning vazni 200–300 g bo'ladi.

Urug'don tizimchasi chov kanalida joylashib, urug'donni tutib turadi. Uro'g'don tizimchasi asosan, urug' yo'lidan, qon tomirlari, nervlar, urug'donni ko'taruvchi ichki muskul, seroz va fibroz pardalardan tuzilgan. Urug'don tizimchasining ichki yuzasida joylashgan seroz parda burmasidan urug' yo'li o'tadi. Urug'don tizimchasi pastki asosiy qismidan urug' ortig'iga, orqa qismidan umumiy qin pardaga birlashgan bo'ladi. Urug'don tizimchasi qorin bo'shlig'idan ikkita burmaga bo'linadi: qon tomirlari burmasi bel tomon o'tib, ichki urug' arteriyasiga qo'shiladi; tizimchaning vena qon tomirlari egilishi va bukilishi natijasida novdasimon g'ilof hosil qiladi.

Urug' yo'li uzun, ingichka naycha shaklidagi organ bo'lib, urug'donda tayyorlangan urug'ni chiqarish uchun birdan–bir yo'l hisoblanadi. Urug' yo'li urug'don ortig'ining dum qismidan boshlanadi va urug'don tizimchasi orqali chov kanalidan o'tib, qorin bo'shlig'iga tushadi, undan urug' yo'li burmasiga boradi, so'ngra siydik xaltachasining ustki qismidan o'tib, tos bo'shlig'i orqali siydik jinsiy kanaliga boradi va pufakchasimon bez yo'lga qo'shilib, urug' chiqarish kanaliga aylanadi. O'ng va chap urug' yo'llari siydik–jinsiy kanalining boshlanish qismiga borib, shilimshiq parda bo'rtigini hosil qilib ochiladi. Urug' yo'lining shilimshiq, muskul va seroz pardalari bo'ladi. Shilimshiq parda silindrsimon epiteliy hujayralari bilan qoplangan. Muskul qavatli silliq to'qimadan iborat. Urug' yo'lining qovuqdan yuqori qismida bezli joyi yoki urug' yo'li ampulasi bo'ladi. Urug' yo'lining uzunligi hayvonlarning katta–kichikligiga bog'liq.

Siydik–jinsiy kanali deb atalishiga sabab shuki, undan jinsiy hujayralar ham, siydik ham chiqadi. Siydik chiqarish kanali erkak hayvonlarda torroq va qisqa, u qovuqning bo'ynidan to urug' yo'li ochilgan joy–gacha hisoblanadi. Siydik–jinsiy kanali hayvonlarda anchagina uzun bo'ladi. U tos va jinsiy a'zolar bo'limiga bo'linadi.

Tos bo'limi tos bo'shlig'ida to'g'ri ichak ostida va qovuq–quymich suyaklari orasida joylashadi. Tos bo'li–mining jinsiy organ bo'limiga o'tadigan joyi bir oz ingichkalashib bo'yin hosil qiladi. Tos bo'limiga qo'shimcha jinsiy bezlarning yo'li ochiladi.

Jinsiy a'zolar bo'limi jinsiy organning bo'yin qismidan boshlanib, pastki tomoni bo'ylab joylashadi va boshning pastki qismida siydik–jinsiy kanalining o'simtasini hosil qilib tashqariga ochiladi. Siydik–jinsiy kanalida shilimshiq parda, kovak va muskul qavatlar bo'ladi. Shilimshiq parda epiteliy hujayrasi bilan qoplangan.

Kovak tana tos bo'limida kamroq, jinsiy organ tomonda esa yaxshi rivojlangaya. Kovak tananing ichki qismi biriktiruvchi to'qimalar hamda bir qancha elastik va silliq muskul to'qimalaridan tuzilgan. Kovak tanada juda ko'p vena qon tomirlarining chigallari bo'ladi. Ular qonga to'lib, ereksiya holatiga

keladi. Bu esa jinsiy qo'zg'alish vaqtida urug' hujayralarining yaxshi chiqib ketishini ta'minlaydi, chunki ereksiya vaqtida siydik–jinsiy kanalining yo'li anchagina bo'shashadi (4–rasm).

Muskul qavati uzun silliq muskul to'qimalaridan iborat, uning ustki tomonida siydik–jinsiy organ muskuli bo'ladi. Tashqi jinsiy organ qismida esa piyozchasimon kovak muskul bo'lib, u jinsiy organ boshigacha yetib boradi. Qovak tananing tuzilishi hayvonlar jinsiy organining tuzilishiga qarab, har xil rivojlangan bo'ladi. Masalan, itlar jinsiy organida suyak borligi sababli, u bir oz kamroq hamda tekisroq tuzilgan va hokazo.

3.3. Periorxit (Periorchitis)

Periorxit deb qin pardasining yallig'lanishiga aytiladi. Periorxitlar sero–fibrinoz, yopishgan va yiringli bo'lishi mumkin. Kasallik barcha uy hayvonlarida kuzatiladi. Masalan, periorxit buqalar va qo'chqorlarda 35%, erkak cho'chqalarda esa 25% holatlarda uchraydi.

Etiologiya. Periorxitlar odatda lat yeyish, jarohat, sovuq urish, yallig'lanish jarayoni yorg'oq va urug'donlardan o'tganda, soqov va brusellyoz kasalliklarida, glistli invaziyada rivojlanishi mumkin.

Klinik belgilar. Qin pardaning o'tkir seroz – fibrinoz yallig'lanishida shish rivojlanishi natijasida urug'don xaltasi kattalashadi, mahalliy harorat ko'tariladi, og'riq paydo bo'ladi. Xalta terisi taranglashadi. Orqa oyoqlarning faoliyati buziladi.

O'tkir yallig'lanish hodisalar pasayishi bilan ayrim hollarda palpasiyada krepitasiya tovushlari eshitiladi. Keyinchalik, urug'don xaltasidagi fibrin xususiy va umumiy qin pardalariga cho'kib, g'uddali biriktiruvchi to'qimali hosilalar o'sadi; urug'donlar va qin pardaning seroz (zardobli) yuzalari o'zaro yopishib qoladi. Buni urug'donlar xalta ichida harakatsiz bo'lib qolganidan aniqlash mumkin. Urug'don xaltasi terisining harakatchanligi esa saqlanadi. Qari hayvonlarda periorxit diffuz surunkali kechganligi sababli xususiy va umumiy qin

pardalari orasida mustaxkam bitishma hosil bo'ladi va natijada umumiy qin pardaning bo'shlig'i to'lig'icha yo'qoladi.

Yiringli periorxidlarda kuchli ifodalangan mahalliy belgilardan (zararlangan urug'donlarning kuchli shishli og'rig'i, yiringli ekssudat to'planishi va boshq.) tashqari organizmda umumiy o'zgarishlar kuzatiladi (jabrlanish, tana haroratining ko'tarilishi, puls tezlashishi va boshq.).

Yiring qin kanali orqali qorin bo'shlig'iga o'tganda peritonit rivojlanadi. Abscesslar tashqariga yorilganda oqmalar hosil bo'ladi.

Tashhis. Periorxitlar klinik belgilar asosida aniqlanadi. Bunda albatta urug'donlar kattalashishi va orqa oyoqlarning faoliyati buzilganligi e'tiborga olinadi.

Oqibati. Aseptik periorxitda kasallik oqibati yaxshi, yiringlida esa – yomon.

Davolash. O'tkir aseptik periorxitda avval sovuq, paranebral novokain qamali qo'llanadi. O'tkir yallig'lanish jarayon so'nishi bilan isituvchi muolajalarga o'tiladi, to'qimali terapiya qo'llanadi. A. M. Atayev erkak cho'chqalarga muskul orasiga dastlab kalta to'lqinli lampa taratadigan ultra binafsha nurlari bilan nurlantirilgan gomogen qonni 1 kg tana vazniga 0,5 ml miqdorda yuborishni tavsiya etadi. Yiringli periorxitlarda hayvon bichiladi.



7–rasm. **Ayg'irdagi gidrosele va urug'don xaltasi yarasi**



8–rasm. **Buqadagi varikosele**

3.4. Orxit va epididimit (Orchitis et epididymitis)

Urug'donlar (orxit) va ular ortiqlarining (epididimit) yallig'lanishi bir – biriga anatomik yaqin bo'lganligi sababli odatda bir vaqtda orxito – epididimit ko'rinishda kechadi.




9–rasm. **Epididimit**

Orxito – epididimitlar bir va ikki tomonlama, o'tkir va surunkali, aseptik va infeksiyon bo'lishi mumkin. Orxito – epididimitlar barcha hayvonlarda ammo ko'pincha qo'chqor va erkak cho'chqalarda kuzatiladi.

Kasallanib sog'aygan hayvonlar keyinchalik avlod bermaydi.

Etiologiya. Orxito – epididimitlar turli shikastlar, bakterial va virusli infeksiya negizida (brusellyoz, sil, virusli pustulyoz balano – postit va epididimit) rivojlanishi mumkin. Kam hollarda kasallik ko'k yiringli tayoqcha, streptokokk va stafilokokklar ta'sirida hosil bo'ladi. Adabiyotlarda aktinomikoz, kandidomikoz va glistli invazyali orxitlar to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi.



10–rasm. **Sil tayoqchalari**




11–rasm. **Candida zamburug'i**

Klinik belgilar. Kasallik belgilari etiologik omillar va kasallikning kechish bosqichiga bog'liq.

Shikastdan kelib chiqqan aseptik orxito – epididimitlarning o'tkir davrida teri va teri ostida qontalashlar, urug'don va urug' tizmachasida qon quyilishlar, urug'donlar kattalashishi, mahalliy haroratning ko'tarilishi va kuchli og'riq kuzatiladi. Kattalashgan urug'donning yuzasi silliq bo'lib, zich konsistensiyali

bo'ladi. Zararlangan urug'don xaltasining terisi kuchli taranglashgan, harakatsiz va issiq bo'ladi.



12–rasm. **Qo'chqordagi o'tkir orxito–epididimit**

Hayvon jabrlanadi, oziqani qabul qilmaydi, qiynalib harakatlanadi, tinch holatda zararlangan tomondagi orqa oyog'ini yonga chiqarib bosadi.

Kasallik yengil kechganda 1,5–2 haftalarda hayvonning umumiy ahvoli yaxshilanadi.



13–rasm. **Urug'don yallig'lanishi**

Zararlangan urug'dondagi kechadigan yallig'lanish jarayonning natijasida epiteliyning yog'li o'zgarishi va nekrozi rivojlanadi, urug' kanallari atrofiyaga uchraydi va biriktiruvchi to'qimaga almashiniladi.

Yiringli orxito – epididimitning boshlang'ich davrida kuchli isitma paydo bo'ladi, urug'don xaltasi, prepusiy va qorin devori diffuz shishadi, regional limfatik tugunlar katalashadi va og'riqli bo'ladi, qon bosimi oshadi va qon tarkibi jadallashuvchi infeksiyaga hos o'zgaradi, puls va nafas olish tezlashadi, kasal hayvon umumiy jabrlanadi va harakatsiz bo'ladi. 5–7–kunga borib, yallig'langan urug'don palpasiyasida uning yuzasida absesslar topiladi, qaysikimlar o'z – o'zidan umumiy qin parda bo'shlig'iga yoki tashqariga ochilib, yiringli oqmalar hosil bo'ladi. Ikki tomonlama orxito – epididimitlarda aytib o'tilgan belgilar kuchliroq bo'ladi.



Urug'don xaltasining ultratovushli manzarasi. Chap urug'donda yirinli o'choq (absess) ko'rsatilgan

Brusellyozli orxito – epididimitlar ko'pincha yarim o'tkir shaklda kechadi. Ular bir– va ikki tomonlama bo'lishi mumkin. Brusellyozli orxito – epididimitlarda urug'donlar va ularning ortiqlari kuchli shishadi, zichlashadi, og'riqli va issiq bo'ladi. Hayvonning umumiy harorati ko'tariladi. Og'ir holatlarda zararlangan urug'don nekrozga uchrashi mumkin.

Tashhis. Odatda klinik belgilar asosida qo'yiladi. Kasallikka infeksiya sabab bo'lganligiga gumon qilinganda bakteriologik va serologik tekshirishlar o'tkaziladi.

Oqibati. Aseptik orxito – epididimitlarda kasallik oqibati ehtiyotkor bo'ladi. Kasallik ko'p holatlarda tuzalish bilan tugaydi ammo tez – tez residivlar hosil bo'lishi mumkin; nasldor hayvonlar naslchilik ishlaridan chetlashtiriladi.

Davolash. O'tkir travmatik orxito – epididimitlarda antibiotiklar, umumiy terapevtik muolajalar, to'qimali terapiya belgilanadi, oziqlantirish yaxshilanadi. Eng samarali usul – arteriya ichiga 100–150 ml 0,5% li novokain eritmasi bilan antibiotiklarni yuborish hisoblanadi. Inyeksiya 48 soatdan so'ng takrorlanadi. 2–3 ta intraarterial inyeksiyalardan so'ng antibiotiklar muskul orasiga yuborib turiladi. Surunkali orxitlar va epididimitlarda davolash tadbirlari samara bermaydi. Yiringli yallig'lanishda bitta yoki ikkala urug'donlar olib tashlanadi. Itlarga urug'don protezlari o'rnatilishi mumkin.



Urug'don protezlari

4. TADQIQOT NATIJALARI

4.1. Samarqand shahrida itlar orasida urug'don kasalliklarining tarqalishi.

Samarqand shahri va atrof tumanlarida itlar orasida yuqumsiz kasalliklarning tarqalishi o'rganilganda quyidagilar aniqlandi:

2015 va 2016 yillarda jami 459 bosh hayvonlar tekshirildi. Qabul qilingan hayvonlardan yarmidan ko'pi itlar edi (234 bosh – 51%), uchdan bir qismini mushuklar (157 bosh – 34%), o'ndan bir qismini – boshqa hayvonlar ot, qoramol, qo'ylar (50 bosh – 11%) hamda kemiruvchi va quyonsimonlar (18 bosh – 4%) tashkil qildi.

Jarrohlik kasalliklarga chalingan 234 bosh itlar tekshirilganda, 98 (41,88%) boshda jarohatlar, 87 (37,18%) boshda yallig'lanish jarayonlar va o'smalar, 20 (8,55%) boshda lat yeyishlar, 29 (12,39%) boshda suyak sinishlari aniqlandi.

2–jadval

Samarqand shahrida itlar orasida jarrohlik kasalliklar monitoringi natijalari

Yil	Jarrohlik kasalliklar	Jarohatlar	Yallig'lanish jarayonlar va o'smalar	Lat yeyishlar	Suyak sinishlari
2015	234	98 (41,88%)	87 (37,18%)	20 (8,55%)	29 (12,39%)

Itlardagi jarrohlik kasalliklaridan jarohat, yopiq mexanik shikastlanish, uchinchi qovoqning yallig'lanishi, quloq kasalliklari, stomatit, balanopostit va urug'don kasalliklari, o'smalar tez – tez uchraydi. Bu kasalliklar hosil bo'lishiga itlarni noto'g'ri ekspluatatsiya qilish, saqlash va oziqlantirish, ularni urishtirish, avtohalokatlar, irsiy nuqsonlar sabab bo'ladi.

Tekshirishlar ko'rsatishicha itlarda jarohatlar ko'proq uchraydi, ammo yallig'lanish jarayonlar va o'smalarning salmog'i ham katta.

2015 yil mobaynida o'tkazgan tadqiqotlar ko'rsatishicha, 73 bosh itlarda erkaklik ko'payish a'zolarining kasalliklari topildi. Ulardan kriptorxizm, balanopostit, orxit, epididimit, prostatit o'smalar kabi kasalliklar e'tiborga

loyiqdir.

Klinikaga keltirilgan, turli zotlarga mansub itlarni tekshirganda ularning sog'ligi, xususan reproduktiv tizimi to'g'risida batafsil ma'lumotlar olindi.

Birinchi etapda tashqi jinsiy a'zolar vizual tekshirildi va gonadalar joylashgan o'rni aniqlandi.

Urug'don yallig'lanishi va boshqa patologiyalarga aniq tashhis qo'yish maqsadida urug'donlar patologiyasi bo'lgan kriptorxizm va unga ko'pincha yo'ldosh bo'lib keladigan testikulyar gipoplaziya holatlariga e'tibor berildi. Kriptorxizmدا urug'don o'ziga mos kelmaydigan muhitda joylashadi, bunda u dissirkulyator, distrofik, disregenerator, skleroplastik o'zgarishlarga chalinadi.

Klinik ko'rik natijalari ko'rsatishicha – erkak itlarda kriptorxizm uchrab turadi va ko'payish tizimi kasalliklariga tekshirilgan 73 bosh erkak itlardan 9 tasida (12,33%) topildi. Bunda bitta yoki ikkita urug'don notabiiy joylashgan edi. Ko'pincha o'ng urug'don urug'don xaltasida joylashmaganligi aniqlandi. Ilmiy ishimiz davomida aniqlandi: kriptorxizm ko'pincha kichik jussali it zotlarida uchraydi, ya'ni barcha tekshirilgan itlardan 6 tasining vazni 10 kg dan past edi. Bu kasallik o'rta va hatto katta itlarda ham kuzatildi, ammo o'ta katta itlarda masalan, dog va o'rta osiyo ovcharkasida u topilmadi.

Tekshirishlarda kriptorxizm boksyor, pudel, nemis ovcharkasi va pekines zotlarga mansub itlarda aniqlandi.

Tekshirishlarda qatnashgan itlar orasida 6 tasida kriptorxizm bilan birga testikulyar neoplaziya borligi aniqlandi. Jami tekshirilgan 73 bosh itlardan 64 hayvonda kriptorxizm kasalligi bo'lmasa ham, 7 boshda urug'donlarning turli o'smalari topildi.

O'sma kasalligiga chalingan kriptorx itlarning yoshi o'rtacha 6 yilni tashkil qildi; urug'donlari tabiiy joylashgan itlar esa o'rtacha 7 yoshda edi. Bundan xulosa qilib aytish mumkin – itlarda urug'don o'smalari asosan hayvon 5 yoshdan katta bo'lgandan so'ng klinik rivojlanadi, kriptorx itlarda esa urug'don o'smasining klinik manzarasi bundan ham ertaroq namoyon bo'ladi.

4.2. Davolash jarayonida itlardagi klinik ko'rsatkichlar

Har xil shakllardagi urug'don yallig'lanishi (orxit) bilan kasallangan 10 bosh itlarda quyidagi umumiy belgilar kuzatildi: Hayvonning umumiy jabrlanishi, bezovtalanish belgilari, mahalliy va umumiy yo'qori harorat, ishtaxa yo'qligi va oriqlash, yorg'oq sohasining shishishi, zararlangan urug'don hajmining kattalashishi, palpasiyada kuchli og'riqliq. Zararlangan a'zo tomonidagi orqa oyoq yon tomonga chiqarilib qo'yiladi (bir tarafli orxitda). Urug'donlar palpasiya qilinganda ayrim joylaridagi parenximasi yumshoq bo'lib, tez rivojlanib kelayotgan distrofik o'zgarishlar rivojlanishidan darak beradi (4 bosh kasal itlar). Fibrozli zichlashishlar (2 bosh kasal itlar) biriktiruvchi to'qima rivojlanishi to'g'risida darak beradi. Bu to'qima tabiiy to'qimani almashtirib, a'zo distrofiyasiga olib keladi.

Yiringli orxitda (2 bosh itlar), jarayon atrof to'qimalarga tarqalganligi sababli loxaslanish, apatiya, jabrlanish, ishtahaning yo'qligi va oriqlash belgilari, qov va regional limfatik to'qimalarining kattalashishi, ularning og'riqligi va zichlashishi kuzatiladi. Yorg'oqning shishishi jinsiy olat va qorinning old devoriga o'tkanligi kuzatildi. Bir itda urug'donda hosil bo'lgan abscess tashqariga yorilib, oqma hosil qildi. Iqqinchi itda urug'donda zich hosila topildi (siringli jarayonning inkapsulyasiyasi). Hayvonlar yurganda oqsab, harakatlari g'ayritabiiy taranglashgan edi. Spermada qon va yiring izlari kuzatildi.

Travmatik orxitda (2 bosh itlar), kasallangan itda urug'don tizmachasi yo'g'onlashgan va zich, yorg'oq shishgan edi, terisida shilinish, kichik jarohatlar va 1 itda gematoma rivojlanganligi qayd etildi. Itlarning orqa oyoqlari yon tomonlarga chiqarib qo'yilgan, yorg'oqning mahalliy harorati ko'tarilgan. Tana harorati ham 1° C ga oshgan edi. Hayvonning ishtahasi yo'qolganligi, jabrlanish va reaksiyasi pastligi, puls va nafas olishi tez va kuchsizligi kuzatilgan. Ayrim holatlarda og'riqli sanchiqlar kuzatilib, hayvon bezovtalanadi. Zararlangan urug'don palpasiya qilinganda og'riq seziladi.

Infekcion orxitda (2 bosh brusellyoz bilan kasallangan itlar), tana harorati ko'tarilgan edi. Hayvonlarning ishtahasi yo'qolgan, jabrlanish va reaksiyasi

pastligi kuzatildi. Zararlangan urug'don palpasiya qilinganda kattalashgan bo'lib, og'riq seziladi.

Davolash tartibi

Yiringli orxit bilan kasallangan hayvonlar konservativ va operativ usullar bilan davolanishga rejalashtirildi.

Konservativ davolashga ko'rsatmalar: Yiringlash belgilari mavjud bo'lmagan qari hayvonlar, gematomasiz kechadigan posttravmatik orxitlar, so'nish bosqichidagi o'tkir orxit yoki kasallik yengil va o'rta og'irlikda kechganda.

Kasallik sababini (bakteriyalar, xlamidiyalar va sh. o'.) yo'qotish uchun antimikrobli terapiya qo'llandi.

Orxidlarda bakterial flora 70% holatlarda siydikda topilmaydi, shuning uchun qo'zg'atuvchiga mos keladigan antibakterial preparatni tanlash qiyin bo'ladi. Antimikrobli vosita infeksiyon o'choqning xususiyatlaridan kelib chiqqan holda tanlanadi.

Nazorat va tajriba guruhlaridagi hayvonlarni davolash uchun antimikrobli vosita sifatida ampicillin va sulfadimetoksinni tanlandi. Qo'llash muddati 7–8 kunlar.

Preparatlar muskul orasiga yuborildi. Og'ir yiringli orxilda antibiotik to'g'ri urug'don parenximasiga yuboriladi.

Tana harorati yo'qori bo'lganda nosteroidli yallig'lanishga qarshi vosita – parasetamol qo'llandi.

Kasallik etiologiyasidan qat'iy nazar, yiringli jarayon rivojlanganda yoki urug'don palpatsiyasida so'rilib ketmaydigan zich hosilalar aniqlanganda jarrohlik aralashuv qo'llanadi.

